

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

"Sinf jurnallari yangi o'quv yiliga qadar yetkaziladi" degan xabarni eshitgandik. Ammo hali-hanuz jurnaldan darak yo'q. Romitan tumanidagi barcha maktablarda shu holat. Barcha sinf rahbarlari vaqtinchalik sinf jurnalidan foydalanishmoqda. O'tgan o'quv yilida qariyb 6 oy vaqtinchalik sinf jurnali yuritib, keyin yangisiga ko'chirgan edik. Ishqilib bu yil ham shu holat takrorlanmasin-da!


4-bet

Chet elda o'qiyman deb...

Xorijiy OTMlarning bakalavriat yo'nalishi bo'yicha sirtqi ta'lim shaklida 3 yil yoki undan kam muddatda o'qib olingan diplomlar yurtimizda o'tmaydi.

7-bet

Yozma nazorat turlari va o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish



8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 7-sentabr, shanba № 69 (9238)

Xalq ziyolilari gazetasi



Iste'dodlilarga qanot

Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi tashkil etildi.

16-bet

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

Bilim, mehr va ma'rifat bayrami



Mehridaryo ustozlar bag'riga oshiqqan o'g'il-qizlarning bilim olishga shay bo'lib saf tortganini ko'rish va birinchi qo'ng'iroq sadosini kutayotgan qalblardagi hayajonni tuyishning o'zi qanchalar maroqli. Iforli gullar, rangin shar va tasmalar bilan bezatilgan maktabga farzandini yetaklab borgan otalarning ham yuraklarida allanechuk orziqishni, ko'zlarida bolalik xotiralarini yodga soluvchi beg'uborlikni sezish qiyin emas.

Mana shunday go'zal manzara "Bilimlar kuni" keng nishonlangan mehr, ilm va ma'rifat maskanlari fayziga fayz qo'shdi, erta tongdan madhiyamiz baland ovoqda yangradi. Yurtimiz mustaqilligining 28 yilligi keng nishonlanayotgan kunlarda 9904 umumta'lim maktabida 4-sentabr kuni "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida bayram tantanalari o'tkazildi. 2019-2020-o'quv yilida maktablarda jami 6,16 mln nafar o'quvchi ta'lim

ola boshladi. O'quvchilar soni o'tgan o'quv yiliga nisbatan 338,56 ming nafarga ko'paydi. Shundan 620 mingdan ziyodi 1-sinfga qadam qo'ygan o'g'il-qizlardir maktabga qolaversa, imkoniyati cheklangan 13 ming nafar bola o'z uyida ta'lim ola boshladi. An'anaga ko'ra ularga o'quv qurollari jamlangan "Prezident sovg'asi" topshirildi.

5-bet



"USTOZLAR — KASABA UYUSHMALARI E'ZOZIDA"

tanlovi g'olibiga "Spark" beriladi!

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'rtasida "Ustozlar — kasaba uyushmalari e'zozida" respublika tanlovi o'tkazilmoqda.

Mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida 2019-yilning 23-avgust kuni "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi mavzuga bag'ishlab kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalarning to'laqonli amalga oshirilishiga, xususan, maktab ta'limini rivojlantirish, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatish, ular ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, malakasi va jamiyatdagi nufuzini, maktablarda ta'lim-tarbiya jarayoni, o'qitish mazmuni va sifatini oshirish borasidagi ishlarga munosib hissa qo'shish maqsadida tashkil etilmoqda.

3 bosqichda o'tkazilayotgan mazkur tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan nomzodlar umumta'lim maktablarida

kamida 20 yillik pedagogik, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi sifatida esa kamida 10 yillik uzluksiz tajribaga ega bo'lishi lozim.

Ishirokchilar tanlov nizomiga asosan tegishli hujjat va materiallarni Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi tuman va shahar kengashlarida tashkil etilgan ishchi guruhlariga taqdim etadilar.

Tanlov g'oliblari O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami arafasida diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi. Xususan:

I o'ringa munosib deb topilgan soha xodimi "Spark" avtomobili;

II o'rinni egallagan ishtirokchi "Samsung" muzlatkichi;

III o'rin sohibi "Samsung" kir yuvish mashinasi bilan taqdirlanadi.

Sovrindorlarga rag'batlantiruvchi mukofot — noutbuk topshiriladi.

Tanlov to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni (71) 256-61-84, 252-14-57 telefon raqamlari orqali olishingiz mumkin.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari UNESCO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida:

1. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

Kasbga o'qitish markazlarini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga o'tkaziladigan kasb-hunar kollejlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalari quvvatlarini oshirish, istiqbolida xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarini tashkil etish uchun beriladigan kasb-hunar kollejlari ro'yxati 5-ilovaga muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalarining ko'p tarmoqli o'quv markazlari va amaliyot poligonlarini tashkil etish uchun beriladigan kasb-hunar kollejlari ro'yxati 6-ilovaga muvofiq;

Binolari umumiy o'rta ta'lim muassasalari sifatida foydalaniladigan kasb-hunar kollejlari ro'yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga zarur hollarda ushbu band bilan tasdiqlangan ro'yxatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

a) boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalariga Xalqaro tasniflagich bo'yicha asosiy ta'lim dasturlaridan tashqari quyidagi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqi beriladi;

b) tizimda mos ravishda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etiladi;

v) kasb-hunar maktablari:

kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi;

ta'lim olayotgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi. Bunda kasb-hunar maktablari o'quvchilarni uch mahal ovqat bilan ta'minlash yoki mazkur ovqat pullarini ularga to'lab berish huquqiga ega;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

g) kollejlarda:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

d) texnikumlarda:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasnifla-

gichning kamida 3- yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'ladi;

joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

e) kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarga idoraviy bo'ssunuvdan qat'i nazar o'quv-metodik rahbarlik qilish hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2020-yil 1-yanvardan yangi tashkil etiladigan boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining ta'minotiga, shu jumladan, ularning joriy saqlanishiga, faoliyatini yuritishiga, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga Davlat budjeti parametrlari doirasida zarur moliyalashtirishni nazarda tutsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf-lari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tugatish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

Belgilansinki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf-lari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari tugatilishi hisobiga bo'shaydigan mablag'lar professional ta'lim tizimini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Savdo-sanoat palatasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) ikki oy muddatda Milliy kvalifikatsiya tizimiga muvofiq Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatorini qayta ko'rib chiqsin;

b) ilg'or xorijiy tajribalar asosida:

uch oy muddatda O'zbekiston Respublikasida milliy kvalifikatsiya ramkasini;

2020-yil 1-yanvargacha iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun Kvalifikatsion ramkalarni;

2020-yil 1-aprelgacha Milliy professional standartlarni ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

a) quyidagilarni:

ikki oy muddatda Uzlaksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlashni;

uch oy muddatda kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarning namunaviy ustavlarini tasdiqlashni;

2020-yil 1-yanvargacha hududlarda investitsion loyihalar asosida yaratilayotgan ish o'rinlari, kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarining ixtisoslashuvini inobatga olib, mavjud jihozlarni qayta taqsimlashni;

2020-yil 1-aprelgacha idoraviy bo'ssunuvdan qat'i nazar professional ta'lim muassasalarining o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangi tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritin;

b) 2020-yil 1-iyungacha boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida ushbu Farmonning maqsad hamda vazifalarini keng yoritish bo'yicha chiqishlar va mavzuga oid ko'rsatuvlarni tashkil etsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Adliya vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abdurahimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh.MIRZIYOYEV

*Toshkent shahri,
2019-yil 6-sentabr*

DEPUTATLAR TA'LIM, NOSHIRLIK FAOLIYATI, BOLA HUQUQLARIGA DOIR QONUN LOYIHALARINI MUHOKAMA QILDILAR

2019-yil 6-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Kun tartibidagi dastlabki masala — "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasining birinchi o'qishdagi muhokamasi qizg'in kechdi.

Ta'kidlash joiz, mamlakatimizda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishi, bu sohaga xalqaro doiralarda umume'tirof etilgan zamonaviy standartlarni joriy etish, shu tarzda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlashgan holda olib borishni taqozo etmoqda. Ana shu yondashuvlarga suyanganda loyiha tashabbuskorlari qonun loyihasiga bir qator yangi normalar, tushunchalar va moddalar kiritishgan. Xususan, katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, yakka tartibda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sohasiga investitsiyalarni kiritish, sohada davlat nazorati, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi baholashi, ta'lim ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari, ta'limda eksperimental, innovatsion faoliyat bilan bog'liq yo'nalishlar degan mutlaqo yangi norma va tushunchalar shular jumlasidandir. E'tiborlisi shun-

daki, yangi tahrirdagi qonun loyihasida avvalgi, zamon sinovidan o'tgan mukammal normalar saqlab qolingan holda ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari va ta'lim muassasalarining faoliyati erkinligini kengaytirishni nazarda tutuvchi yangi normalar va boshqa tushunchalar o'z aksini topmoqda.

Deputatlarning qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, sohani tubdan takomillashtirish va ta'limni xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlashgan holda olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, fuqarolarning xorijda ta'lim olishi, chet elda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarning tan olinishi, shuningdek, ilk bor mamlakatimizda butun umr ta'lim konsepsiyasining kiritilishi kabi masalalarning qonun loyihasi normalarida ilgari surilishi ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi.

Shundan so'ng parlament a'zolari kitob va boshqa bosma mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va savodxonlik madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashuvchi soha faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini birinchi o'qishda muhokama qildilar.

Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri

va dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatanimiz va xalqimizga muhabbat, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik va kitob targ'ibotini kuchaytirish, axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ham ana shunday xayrli maqsadlarni ro'yobga chiqarishni ko'zlagani bilan ahamiyatlidir. Ushbu loyiha qabul qilinishi yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy va estetik ehtiyojlariga mos sifatli kitoblarni nashr qilish, kitoblarni qulay narxlarda joylarga, shu jumladan, ta'lim muassasalariga yetkazib berish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namularini tarjima qilish, o'sib kelayotgan avlodda bolalikdan kitobga mehr uyg'otish, ularda elektron kitoblarni o'qish qobiliyatini shakllantirish — kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Majlisda deputatlar "Bola huquqlari kafolatlarining yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ham birinchi o'qishda atroflicha muhokama qildilar.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida xorijiy davlatlarning qonunlarida bolaga nisbatan ishlatiladigan tazyiq va zo'ravonliklar turlari, ularning oldini olish choralari, jinoyat protsessi ishtirokchilari hisob-

langan bolalarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha kafolatlariga oid normalar atroflicha o'rganilib, tahlil qilindi.

Qayd etilganidek, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi bolaga nisbatan ishlatiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning barcha turlarini qamrab olmagani sababli ushbu moddaga davlat tomonidan huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlarni sodir etishga jalb qilishdan himoyalash bo'yicha choralarni ko'rilishini nazarda tutuvchi normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida davlat bolaga nisbatan ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllarining oldini olish, ular sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rishini belgilovchi qoida kiritilmoqda.

Qizg'in kechgan bahs va tortishuvlar chog'ida mazkur qonunning qabul qilinishi jinoyat protsessi ishtirokchisi hisoblangan bola huquqlarining himoyasini kuchaytirishga, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida voyaga yetmaganlar huquqlari muhofazasini ta'minlashda muhim huquqiy asos yaratishi qayd etildi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar ham muhokama etilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati

Yangi qiyofada

Termiz shahridagi Farhod mahallasida qayta rekonstruksiya qilingan 280 o'rinli 20-maktabgacha ta'lim muassasasi foydalanishga topshirildi.

"O'ktam-Termiz" mas'uliyati cheklangan jamiyati quruvchilari tomonidan rekonstruksiya qilingan bino uchun mahalliy budjetdan 3 milliard 288 million so'm mablag' sarflandi.

Yangi qiyofada bo'y ko'rsatgan ikki qavatli muassasada bolajonlarning tarbiyalanishi, sifatli ta'lim



va miriqib dam olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Keng, yorug' xonalar zamonaviy usulda jihozlangan.

— Bino ancha eskirib qolgan edi. Tubdan qayta ta'mirlangach, tamomila yangi ko'rinish kasb etdi, — deydi muassasa mudirasi D.Jumanazarova. — Har bir xona yuksak did bilan jihozlanib, qo'shimcha sharoitlar yaratildi. Shuningdek, hovlimiz obodonlashtirilib, bolalar o'yin maydonlari tashkil etildi. O'g'il-qizlarimizning sevimli ertaklari

qahramonlari aks etgan haykalcha va rasmlar bilan bezatildi. Bunday qulayliklardan ota-onalar ham mamnun.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan 480 davlat, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga 3—7 yoshgacha bo'lgan bolalarning 22,4 foizi qamrab olingan. Yil yakunigacha yangidan ishga tushiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalari hisobiga bu ko'rsatkichni 32,3 foizga yetkazish hamda 70 mingdan ortiq jajji bolajonlarni qamrab olish mo'ljallanmoqda.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV,
O'ZA muxbiri

Yilning eng iste'dodli yosh shoiri

Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyot fani chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatda Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ittifoqi va Respublika bolalar kutubxonasi hamkorligida tashkil etilgan "Yilning eng iste'dodli yosh shoiri" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlov yurtimizda iste'dodlilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning amaldagi ifodasidir.

Tanlovning dastlabki bosqichida 5—10-sinf o'quvchilari o'zaro kuch sinashdi. Barcha shartlardan yuqori ball olgan 14 nafar iste'dodli ijodkor respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Tanlovning yakuniy bosqichi ikki shart asosida o'tkazildi. Hududiy bosqichda taqdim etilgan she'rlar to'plami hakamlar hay'ati tomonidan o'rganilib, 50 ballik mezon asosida baholandi. Ikkinchi shartda ishtirokchilar-

ga Vatan, muhabbat va ezgulik, tabiat va atrof-olam, ijtimoiy hayot mavzulariga doir she'r yozish topshirildi.

Tanlov yakuniga ko'ra, 1-o'rin Muzrabot tumanidagi 7-maktab o'quvchisi Shahribonu Tursunovaga nasib etdi. U shu kunga qadar qator tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan. Shahribonu "Kamalak" yulduzlari bolalar ijodiyoti festivali g'olibi, she'rlari respublika nashrlarida muntazam chop etiladi. U "Yurtim jamoli" nomli she'riy to'plam muallifi.

Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi maktab-internat

o'quvchisi Iroda Xolbekova hamda Kosonsoy tumanidagi 8-maktab o'quvchisi Muslimaxon Olimxonova 2-o'ringa munosib deb topildi. Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi maktab-internat o'quvchisi Mashhura Abduraimova hamda Toshkent shahridagi 90-maktab o'quvchisi Kiyishjon Allomova 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Buxoro tumanidagi 20-maktab o'quvchisi Nilufar Halimova "Vatan haqida eng yaxshi yozilgan she'r muallifi", Taxtakopir tumanidagi 1-maktab o'quvchisi Nargiza Raimbergenova "Yilning eng yosh shoirasi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Barcha ishtirokchilarga Xalq ta'limi vazirligining "Ko'rik-tanlovning faol ishtirokchisi" diplomi topshirildi.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Eng katta orzum

Ilk orzu-umid qachon tug'iladi? Menimcha, birinchi taassurot va dastlabki qadamda qalbimizni chulg'agan hislar hech qachon aldamchi bo'lmaydi. Har bir insonning ana shu ilk havasi bilan ulkan orzular yaralishi rost. Necha yillar o'tmasin, maktabga borgan kunim, 1-sinfda ta'lim olishni boshlagan onlarim hamon yodimda. O'shandayoq men ulg'ayib o'qituvchi bo'lishni va katta sinfonalarda qo'llarini ustma-ust qo'yib bilim olishga shay turgan bolalarga dars berishni niyat qilgandim.

Kuni kecha shu orzum ushaldi, men ham ulug' niyatlar-u his-hayajon ila qorako'zlar qarshisida dars o'tdim. Bolaligimdan hayotdagi ilk ustozim — onam va o'qituvchilarimdan o'rgangan, havas qilgan kasbiy mahorat, pedagogik layoqatni oshirish, o'quvchilarga chuqur bilim berishga bel bog'ladim. O'zim ta'lim olgan dargohga kelar ekanman, qalbimni ta'rifi bo'lmas ajib hayajon chulg'ab oldi. Men kabi 6 nafar yangi yosh o'qituvchi tengdoshlarim ham xuddi shunday holatni boshdan o'tkazgandir. Yosh, tashabbuskor maktab direktori Farrux Omonboyev boshchiligidagi 56 nafar o'qituvchilardan iborat pedagogik jamoa bizni xayrixohlik bilan kutib oldi. 800 ga yaqin bola ta'lim olayotgan maktabimizda anchagina bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Bu ko'zimizni quvnatdi, albatta.

"Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida o'tkazilgan birinchi qo'ng'iroq tadbirlarida tuman hokimligi, mahalla fuqarolar yig'ini, faxriy pedagoglar hamda ota-onalar vakillari qatnashdi. Darhaqiqat, keyingi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatib, yanada shijoat bilan ishlagimiz keladi. Ushbu yangi o'quv yilidagi yangiliklar qatori yangi darsliklar va elektron materiallar ishlab chiqildi. Jumladan, texnologiya darsliklari mazmuni o'quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondashuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitildi. Bu STEAM texnologiyalari talablari asosida amalga oshirildi. 8-sinf-ular uchun esa geografiya, texnologiya hamda O'zbekiston davlati va huquqi asoslari darsliklarida QR-kod yordamida qo'shimcha ma'lumot olish imkoniyati yaratildi. 8-9-sinf tarix darsliklari xaritalar bilan boyitildi.

Kuy-qo'shiq, raqslardan so'ng barcha sinflarda "Mustaqillik darslari" boshlandi. Shundan so'ng men ham 6-"D" sinfda ilk darsimni o'tdim. Ich-ichimdan kelayotgan hayajon yo'qolib, menga biologiya fanidan dars berib, o'simlik va nabotot olamiga qiziqitira olgan ustozim Fariza opa Xolmonova, ustoz-shogirdlik an'anasi-ga ko'ra, pedagogiklikning sir-asrorlarini o'rgatayotgan ustoz Sayyora Sotiboldiyevaning ishonchini oqlash, ota-onam, yaqinlarimning ma'nan va ruhan qo'llab-quvvatlashiga javoban jamiyatda, yurt oldida o'z o'rnimga ega bo'lish mas'uliyati yanada shijoat, kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Azizbek XOLMETOV,
Yangibozor tumanidagi 20-maktab o'qituvchisi



Urganch davlat xizmatlari markazi yangi binoda

Xorazm viloyati Urganch tuman davlat xizmatlari markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Qisqa vaqt ichida qad ko'targan 2 qavatli binoda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Investorlarga xizmat ko'rsatish xonasi, kutish zali, kafe, bolalar maydonchasi, kutubxona tashrif buyuruvchilar xizmatida.

Markaz orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga 2018-yil davomida jami 32 ming 942 ta davlat xizmati ko'rsatilgan, — deydi Davlat xizmatlari agentligi Xorazm viloyat boshqarmasi rahbari Ulug'bek Abdullayev. — Joriy yilning o'tgan davrida esa davlat xizmatlari ko'rsatish soni 56 ming 465 tani tashkil etdi. Yangi bino aholiga xizmat ko'rsatish sifati yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shonazar QORIYEV (O'ZA) olgan suratlar.



O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



Sevimli nashrimiz sahifalari-da fikrlarim berib borilayotganidan mamnunman. O'qituvchining o'y-xayollari, muhozazalari, ozgina ishi ham e'tibordan chetda emas. Ayni damda davlatimiz rahbarining o'qituvchi obro'sini oshirish uchun jon kuydirishi haqiqiy ma'noda g'ururlanishimizga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda faqat yonib ishlashimiz kerak. Axir xalq bizga o'z qorachilarni ishongan. Men o'zimga yangi o'quv yilida so'z berdimga: izlanaman, o'qiyman, jon-jahdim bilan ishlayman!

Zevarshoh HAMROYEVA

Ilk saboq olgan, o'rganayotgan o'quvchi shunday xursand bo'ladi-ki, siz uning eng sevimli insoniga aylanasiz. Mana shu emasmi ustozning eng katta yutug'i. Bu yil men ham sinf rahbari bo'ldim. Meni 28 qorako'z kutib oldi. Bu ajib tuyg'u ekan. O'g'il bolalar o'g'limdek, qizaloqlar qizimdek qadrlidi. Ular maktabdagi eng chiroyli o'quvchilar men uchun. Ham mas'uliyatli, ham maroqli ekan bu vazifa. Ota-onalar bilan ilk majlisni ham o'tkazdik.

Hulkaroy AZIMOVA

"Sinf jurnallari yangi o'quv yiliga qadar yetkaziladi" degan xabarni eshitgandik. Ammo hali-hanuz jumaldan darak yo'q. Romitan tumanidagi barcha maktablarda shu holat. Barcha sinf rahbarlari vaqtinchalik sinf jurnalidan foydalanishmoqda. O'tgan o'quv yilida qariyb 6 oy vaqtinchalik sinf jurnali yuritib, keyin yangisiga ko'chirgan edik. Ishqilib bu yil ham shu holat takrorlanmasin-da!

MADINA

O'quvchilarning 9-sinf bo'ldi. Bo'yarlari cho'zilgan, ozgina ulg'aygan. Ularni sog'inibman! Bu yil ham o'quvchilarning uchun kichik tanlov tashkil etishni rejalashtirdim va buni birinchi darsdanoq e'lon qildim: "Eng ko'p kitob o'qigan", "Eng ko'p a'lo baho olgan", "Davomati 100 foiz bo'lgan" nominatsiyalari bo'yicha o'quvchilar yilda ikki marotaba aniqlanib, taqdirlandi. Oldinlari g'oliblarga kitob sovg'a qilardim. Bu gal pul mukofoti berish haqida o'ylayapman.

D.NURMUHAMMEDOVA

Nega hech kim to'lov-shart-noma puli haqida fikr bildirmaydi? Oshib borayotgan summalardan aql shoshib qolyapti-ku! Qayoqqa qarab ketyapmiz, axir? Oddiy farrosh qancha oylik oladi? Agar 2 nafar farzand to'lov asosida o'qisa, bechora xalq nima qiladi? Nima uchun odam savdosida haqida gapirami-uz, sababini aniqlamaymiz? Balki, o'qish uchun pul topgani ketishayotgandir o'sha bechoralar. Chet eldan boshqa narsalar qatori "iste'mol savatchasi"ning ham andozasini olsak bo'lmaydimi?!

Yulduz JABBOROVA

Bilim, mehr va ma'rifat bayrami

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabida ham tadbir shodiyona ruh va ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tdi. Tadbirda Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov ishtirok etdi. Aytish joizki, 2019-2020-o'quv yilida umumta'lim maktablarining 1-, 3-, 8-, 9-sinflari uchun jami 479 nomda 36,5 mln nusxa darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etildi. O'quvchilar, o'qituvchilar, otionalarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2019-2020-o'quv yilida umumta'lim maktablarining 8-9-sinflari uchun "Texnologiya" darsligining yangi avlodi (mustaqillik yillarida ilk marotaba) nashr qilindi hamda ijara tizimiga kiritildi. Mazkur darsliklar 7 tilda chop etildi.

— Men bu yil 1-sinfga chiqdim, — deydi jaiji Mubina. — Opa-akalarimning maktabga borishi, portfel ko'tarishiga havasim kelardi. Menga ham o'quv qurollari solingan Prezident sovg'asi berildi. Endi akalarim qatori a'lo baholarga o'qishga harakat qilaman.

Maktab direktori Saodat Malikovaning aytishicha, 2900 nafar o'g'il-qiz ta'lim olayotgan maktabda 2 ta ko'rkam va yangi o'quv binosi qurmoqda. Sport majmualari, futbol maydonchasi, faollar zali bunyod etildi. Qo'shimcha kompyuter sinflari, lingafon xonalari, laboratoriya kabinetlari, psixolog, ma'naviyat va ma'rifat xonalari bunyod etildi. Keng va shinam sinfxonalar zamonaviy jihoz va uskunalar bilan ta'minlandi. Bularning bari ustoz va murabbiylarni yanada g'ayrat bilan bolalarga ta'lim-tarbiya berishga chorlashi shubhasiz.

Hokimlar dars o'tdi

Yangi o'quv yili bu yil o'zgacha an'ana bilan boshlandi. Respublikamizdagi barcha viloyat hokimlari ta'lim muassasalariga borib, o'quvchi-yoshlarga "Mustaqillik darsi"ni o'tishdi. Darslarda ona Vatanni sevisish insoniy burch ekani, unga munosib farzand bo'lish uchun har bir o'quvchi yetuk bilimga ega bo'lishi haqida gapirildi. Jumladan, Navoiy viloyati hokimi Qobil Tursunov Karmana tumanidagi o'zi tahsil olgan 21-umumta'lim maktabida bo'lib, ta'lim

maskaniga ilk qadam qo'ygan bolajonlarga Prezident sovg'alarini tantanali topshirdi. Hokim 11-sinf o'quvchilariga "Mustaqillik darsi"ni o'tdi. U "Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik" shiori ostida ma'ruza qilib, o'z tavsiyalarini berdi. O'quvchilarga ta'lim-tarbiyaning inson kamoloti va yutuqlaridagi o'rni haqida hayotiy misollar keltirdi. Kasb tanlash bitiruvchilar uchun muhim masala ekaniga e'tibor qaratib, ularning fikrlarini tingladi. Yaqin 10 yilda yuksak malakali pedagoglar, axborot-kommunikatsiya sohasi mutaxassislariga ehtiyoj katta bo'lishini ta'kidladi. Buxoro viloyati hokimi O'ktam Barnoyev ham Qorako'l tumanidagi 15-umumta'lim maktabida o'tkazilgan tadbirda ishtirok etdi va bolalarni o'quv yilining ilk kuni bilan tabrikledi. Ta'lim maskanida o'quvchi-yoshlar va pedagogik jamoa uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Sovg'alar har yilgidan zo'r!

— Bu yil 1-sinf o'quvchilariga beriladigan "Prezident sovg'asi" tarkibidagi mahsulotlarning sifatiga alohida e'tibor qaratildi, — deydi Qibray tumanidagi 25-maktab direktori Shukurullo G'aniyev. — 1-sinf o'quvchilari uchun "Prezident sovg'asi"dan 12 turdagi o'quv qurollari o'rin olgan. Jumladan, yorug'lik qaytargich elementlari bo'lgan portfel, 2 xil chiziqli 12 dona daftar, qalamdon, rasm daftari, rangli qog'oz, sharikli ruchka, akvarel bo'yoqlari, rangli qalamlar jamlanmasi, yelim, oddiy qalamlar va o'chirg'ich yangi o'quv yilining ilk kuni "Prezident sovg'asi" sifatida 1-sinf o'quvchilariga topshirildi. Bundan ota-onalar ham, o'quvchilar ham mamnun.

Bu yil ta'lim sifati va mazmuniga oid o'zgarishlar ham katta. Masalan, o'quv rejasiga kiritilgan eng katta o'zgarishlardan biri — ta'lim rus tili va qardosh tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarida davlat (o'zbek) tilini chuqurroq o'rgatish maqsadida 5-sinfdan boshlab o'zbek tili faniga haftasiga qo'shimcha 1 soat qo'shib berildi.



Qashqadaryo viloyatidagi umumta'lim maktablarida ham "Bilimlar kuni" "Mustaqillik darslari" bilan boshlandi.

Viloyatda 1131 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 3 ta nodavlat maktab faoliyat yuritadi. Viloyat hokimi Zafar Ro'ziyev maktablardagi "Bilimlar kuni" tadbirlarida ishtirok etdi. Koson tumanidagi 62-umumta'lim maktabida o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimi so'zga chiqib, o'qituvchi va o'quvchilarni yangi o'quv yili bilan tabrikledi, maktab ta'limining inson hayotida tutgan o'rni xususida so'z yuritdi. Viloyat hokimi o'quvchilarga "Mustaqillik darsi"ni o'tdi. Unda O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning milliy manfaatlarini, tinch va osuda hayotini ta'minlash, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning mustahkam poydevori bo'lib kelayotgani alohida ta'kidlandi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolajonlarga "Prezident sovg'asi" topshirildi.

Sevin OCHILOV,
VXTB Axborot xizmati boshlig'i

Vazirning chorlovi

Yangi o'quv yilining ilk kuni davlat va jamoat arboblari, deputatlar, mahalliy hokimlik rahbarlari talabalarga dars o'tishdi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Inom Majidov o'zi tahsil olgan Respublika fizika-matematika maktab-internati — hozirgi O'zMU qoshidagi S.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o'quvchilari bilan uchrashdi. Vazir o'quvchilarga jamiyatimizda kechayotgan o'zgarishlarni oliy ta'lim tizimi misolida tushuntirib berdi. Iqtisodiyot rivoji uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida oxirgi 3 yilda 35 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani hamda 13 ta nufuzli xorijiy universitetning filiallari tashkil qilinganini alohida ta'kidlab o'tdi.

— Siz yangi dargohga qadam qo'ydingiz. Men ham bu maskanga ilk bor kelganimni yaxshi eslayman, — dedi vazir. — Bu yerdagi tartib-intizom, o'quv yuklamasi, o'qituvchilarning talabchanligi sizlarni aslo cho'chitmasin. Ishoning, bugun bu yerda masalalar ko'pligidan qiyalsangiz, ertaga katta hayotda o'zingizga oson bo'ladi. Chunki hayot ham masala yechishdek jumboqlarga to'la, kurashlardan iborat.

Samimiy muloqotda o'g'il-qizlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishdi.

Yangi o'quv yiliga tuhfa

Uchtepa tumanidagi 74-maktabda yangi o'quv yili va "Bilimlar kuni" tadbiri bu yil o'zgacha ruhda boshlandi. Tadbirda so'zga chiqqanlar barchani yangi o'quv yili bilan tabriklab, ulkan zafarlar tiladi, Yurtboshimizning ishonchini

oqlash har bir farzandning burchi ekanini ta'kidlashdi.

— Hech bir bayram sovg'asiz o'tmaydi, — deydi maktab direktori Shoir Bagirova. — Bu yil maktabimizda amalga oshirilgan ishlar o'qituvchi va o'quvchilar uchun haqiqiy bayramona tuhfa bo'ldi. Maktabimizning tom qismi va issiqlik tizimi butunlay yangilandi. Prezidentimizning 5 ta tashabbusi doirasida kompyuter jihozlari berildi. Sport zali ta'mirlanib, yangi jihozlari bilan to'liq ta'minlandi. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda mini futbol, basketbol maydonchalari qurilmoqda. Maktab oshxonasi ham zamon talabi asosida yangidan ta'mirlanib, qayta jihozlandi. Yangi o'quv yilida yaratilgan bunday sharoit ta'lim sifatiga ham ijobiy ta'sir qiladi, degan umiddamiz.

Yangi maktabdagi yangi o'quv yili

Xalq ta'limi vazirligi matbuot xizmatining xabar berishicha, o'quv sifati nisbatan yuqori bo'lgan ta'lim muassasalari tajribasini boshqa umumta'lim maktablarida joriy etish maqsadida namunalni maktablar negizida 71 ta tarqoq maktabi tashkil etildi. Faoliyatini tugatayotgan 383 ta kasb-hunar kolleji binosining maktablarga berilishi natijasida qo'shimcha 224 mingdan ortiq o'quvchi o'rni yaratildi. Investitsiya dasturi doirasida 53 ta umumta'lim maktabi yangi qurildi va 210 tasi rekonstruksiya qilindi. Natijada jami 646 ta maktabda belgilangan me'yorlarga nisbatan o'quvchi sig'imini 1,5 koeffitsiyentgacha tushirishga erishildi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar uchun sharoitlarni yanada yaxshilab, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shoir BOYMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



Badiiy asar tahlilida endi qiynalmaysiz

Ushbu metodik majmua adabiyot darslarida yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar yuzasidan tavsiyalar beradi. Ushbu metodlar asar qahramonlarining xarakteri, ichki olami va kechinmalarini to'la his etishga hamda u orqali asar sujetini tahlil qilish, g'oyasini yorqinroq anglashga xizmat qiladi.

“SWOT tahlil” metodi. Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi Yoʻlchi obrazi misolida.



“Kimoshdi savdosi” metodi.

A.Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani qahramonlari misolida. Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Muayyan vaqt ichida 1-guruhga asardagi ijobiy, 2-guruhga salbiy qahramonlar, 3-guruhga personajlar nomini yozish topshiriladi. Ko'proq qahramon nomini yozgan guruh g'olib sanaladi.

Ijobiy qahramonlar	Salbiy qahramonlar	Personajlar
Otabek	Homid	To'ybeka
Kumush	Zaynab	Ziyo shohichi
Yusufbek hoji	Jannat	Xushro'y
Mirzakarim qutidor	Musulmonqul	Oybodoq
Oftoboyim	Azizbek	
Hasanali	Xudoyorxon	

“Musbat, manfiy” metodi. Asardagi asosiy qahramonlar yoziladi. O'quvchilar qahramonlarning ijobiy va salbiy xarakterlarini yozadi.

Obrazlar	Musbat	Manfiy
Otabek	Haqiqiy oshiq, oʻta andishali, maʼrifatli va ziyoli, adolatparvar.	Sevgisi uchun kurasholmadi, oilaviy munosabatlarga biryozlama qaradi.
Kumush	Nazokatli, hayoli, sadoqatli, biroz quv, farosatli, andishali	Sodda, ishonuvchan.
Zaynab	Itoatkor kelin, oʻz yorini jonidan ortiq sevadi.	Kuchli hasad va rashk.
Yusufbek hoji	Ogʻir, bosiq, kamgap, oʻylovli, xalq manfaatini koʻzlaydi.	Yolgʻiz oʻgʻlining qalb tugʻyonlarini tushunishga harakat qilmadi, adolatsizlikka qarshi kurasholmadi.
Oʻzbekoyim	Mehribon ona, oʻta sodda.	Magʻrur, oʻziga bino qoʻygan.

“Taʼrif berish” metodi. O'qituvchi o'rganilayotgan asardagi qahramonlar portreti tasvirlangan matnni o'qiydi. O'quvchilar ta'rif egasini topib, u haqida to'liq ma'lumot beradi. “Ravshan” dostoni misolida.

1. Koʻp suluv, yaxshi suratli, shirin soʻzli, quralay koʻzli, uzun boʻyli, keng koʻkrakli, xushxayol, zehni tez, serfahm qiz. (Gulanor)
2. Juda zoʻr edi. Ot, tuya, arava koʻtarolmas edi. Doim bir yoqqa koʻchmoqchi boʻlsa, piyoda ketar edi. (Aynoqal)
3. Oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi toʻlgan oyday ikki qoshli hiloli, yasan-gan hurday, tishlari durday, koʻzlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmiz-day... (Zulkumor)
4. Yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning oʻtkirini qinidan bilar edi. (Tersakkal)

“FSMU” metodi. F – fikr, S – sabab, M – misol, U – umumlashma. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi misolida.

Obrazlar	Fikr	Sabab	Misol	Umumlashma
Bola	Qalbi pok, mehri-bon.	Jonsiz toshlar, gullar, portfeli va durbiniga oʻzgacha mehr koʻrsatardi.	Bolakay shoshib turgan boʻlsa ham, oʻzining sevimli toshlarini erkalab, ularga eʼtibor bilan qaraydi.	Hayotda koʻrmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramzlardan topishga urinardi.
Shox-dor ona bugʻu	Ezgulik, olijanoblik timsoli.	Odamlar bugʻu-ni bolalarini oʻldirishgan boʻlsa ham, odam bolalarini asrab, mehr bilan parvarish qildi.	“Endi men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarim”. Ona bugʻu bolalarni opichib, yovlardan asrab borardi.	Ona bugʻu obrazi asarning umrboqliligini taʼminlab, ezgu fazilatlarining hech qachon yoʻqolib ketmasligidan dalolatdir.
Moʻmin chol	Barchaga yaxshilik ulashadi.	Sal-pal biladigan odamiga ham biror yaxshilik qilishga urina-di, hammaning xizmatiga hozir-u nozir.	Oʻz qabiladoshlarini toʻy-maʼrakala-rida asosiy yumush-lar unga topshirilsa, bundan bениhoya sevinib, astoydil ishga kirishardi.	Moʻmin chol tabiatidagi odamiylik xis-latlari insonni inson sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Gulnoza QOʻLDOSHEVA,
Romitan tumanidagi 13-maktab o'qituvchisi

Birinchi darsimiz mavzusi — Vatan

Respublikamizdagi barcha umumtaʼlim maktablarida birinchi qoʻngʻiroq sadolari yangradi. Bilimga tashna o'quvchilar sevimli maskanida taʼlim ola boshladilar. Yoz boʻyi huvillab qolgan maktablar bogʻi o'quvchilar bilan toʻldi. Har bir ilm maskanida birinchi dars mustaqillik mavzusida boʻlib oʻtadi.

Barcha o'qituvchilar singari men ham birinchi darsga puxta tayyorlandim. Avvalo, o'quvchilarim bilan diydorlashuvdan cheksiz quvondim. Ularning yuz-koʻzlaridan jonajon maktabini, aziz ustozlarini juda sogʻingani bilib turar edi. Bolalar bilan suhbatimiz yoz fasli qanday oʻtgani, taʼtil taassurotlari bilan yanada qizgʻin ruhda kechdi. Ular aytgan qiziq voqealarni, ajoyib sarguzashtlarni eshitib, bolalik davrim yodimga tushdi. Darsimizni aʼlo kayfiyatda

boshladik. Aslida, biz o'quvchilar bilan ushbu darsga tayyorgarlikni may oyidan boshlaganmiz. Men ularga taʼtil topshiriqlari bilan birga Mustaqillik darsi uchun alohida vazifalar ham bergan edim. Yoz boʻyi bajariladigan ishlar, vazifalar ham, asosan, “Vatan” mavzusiga yoʻnaltirilgandi. Zukko, topa-gʻon o'quvchilarim bir-biridan ajoyib ma'lumotlar

Yoz boʻyi bajariladigan ishlar, vazifalar ham, asosan, “Vatan” mavzusiga yoʻnaltirilgandi. Zukko, topa-gʻon o'quvchilarim bir-biridan ajoyib ma'lumotlar to'plab, birinchi darsga alohida tayyorgarlik ko'rib kelishibdi.

to'plab, birinchi darsga alohida tayyorgarlik ko'rib kelishibdi.

Jumladan, Diyora Samandarova, Norbek Bahodirov, Sarvinov Shavkatova “Vatan” mavzusida maqollardan misollar keltirib, mazmunini izohlab berishdi. Dinora Ozodova, Sherzod Egamberdiyev ona zamin haqida she'r aytdi. Nozima Rajabova, Mirzobek Karimov, Donoxon Rustamboyeva esa “Vatandan uzoqda” deb nomlangan sahna ko'rinishi namoyish etdi. Ular ishon-chimni oqlashdi.

Har bir bayramning o'zgacha ohanrabosi, shukuhi bor, lekin Mustaqillik ayyomining o'zni va ahamiya-ti beqiyos. Biz bu bayram nashidasini nainki yil bo'yi, balki umrimiz oxirigacha his etib yashaymiz.

Iroda PANAYEVA,
Xiva tumanidagi
39-maktab o'qituvchisi

Chet elda o'qiyman deb...

Dunyoda maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'rta 30 foizni tashkil etadi. Shundan eng yuqori ko'rsatkich Janubiy Koreya (75 foiz), Kanada (63 foiz), Yaponiya (61 foiz), Rossiya (55 foiz), Fransiya (46 foiz) davlatlarida. Markaziy Osiyoda Qirg'iziston (42 foiz) va Qozog'iston (36 foiz) yetakchi bo'lsa, mamlakatimizda esa 12 foiz maktab bitiruvchilari oliy ta'limga qamrab olinadi. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari soni bo'yicha Markaziy Osiyoda Qozog'istondan (128 ta OTM) keyin 2- MDHda esa Rossiya, Ukraina, Qozog'istondan keyin 4-o'ringda. Lekin bu aholi soni va ehtiyojiga nisbatan baribir yetarli emas. Shuning uchun ham o'qish istagida bo'lgan ko'plab yoshlarimiz boshqa davlatlardagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiriyapti. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 40 mingga yaqin o'zbekistonlik yigit-qiz xorijda ta'lim olmoqda. Ta'lim eksporti bizda endi boshlanmoqda, desa ham bo'ladi. Talabalar mobilligiga yurtimizda ham keng yo'l ochib berilishi maqsadga muvofiq. Chunki u butun dunyoda ta'lim olishni istagan yoshlarga keng imkoniyatlarni yaratadi.

Umuman olganda, jahondagi oliy ta'lim talabgorlari, ilmiy-tadqiqot olib boruvchilar orasida bir mamlakatdan boshqasiga borib o'qiyotganlar va o'qishga qiziquvchilar soni kundan kunga ortib bormoqda. Bugun ular soni 4 mln.dan oshgan bo'lsa, tez orada 8 mln.ga yetishi kutilmoqda. Bu o'sish, o'z navbatida, mamlakatlar o'rtasida yoshlarning oliy ta'lim olishini ta'minlash uchun bir xil yondashuvni, ularning malakasi va hujjatlarini tan olish talablarini soddalashtirish, ushbu yo'nalishdagi munosabatlarni muvofiqlashtirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Bugungi kunda juda ko'plab konsalting tashkilotlari, vositachi jismoniy yoki yuridik shaxslar ijtimoiy tarmoqlar, OAV orqali yoki joylarda yurib, xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga jo'natish va kiritib qo'yishdek turli va'dalar bilan yurtdoshlarimizni chalg'itib, kerak bo'lsa, aldash pulini olmoqda. Bu kabi konsalting kompaniyalari orasida to'g'ri ma'lumot va maslahat berayotganlari ham bor. Lekin oqibatini o'ylamay, evaziga faqat o'z xizmat haqi uchun (1,5 mln.dan 4 mln.gacha) turli va'dalar berayotganlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Xitoydagi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kiritib qo'yaman, kirish imtihonlarini gaplashib beraman, faqat pulini to'lasangiz bo'ldi, qabilda yo'l tutayotganlar ham talaygina. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga tushayotgan murojaatlariga ko'ra, ayrim konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatlarini kasb-hunar kollejlari, savdo va maishiy xizmat markazlari binolarida olib bormoqda. Aynan shu yerda o'qishga ishtiyoqmand yoshlar va ularning ota-onalari "qarmoq"ga ilintirmoqda. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi yuqoridagilardan kelib chiqib, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, fuqarolarni aldanib qolishining oldini olish, noto'g'ri axborotlarning reklama huquqi asosida tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik, yosh avlodga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim berilishini ta'minlash hamda kelgusida e'tiroz va noroziliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida mazkur konsalting xiz-

matlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatini nazoratga olish va noqonuniy faoliyat olib borish hollari aniqlangan taqdirda, tegishli choralar ko'rishni so'rab hokimliklar va huquq-tartibot idoralarga xat yo'llagan.

Ayniqsa shu kunlarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlardagi qator oliy ta'lim muassasalari tomonidan masofadan turib (distans) yoki sirtqi ta'lim turlari bo'yicha to'lov-shartnoma asosida imtihon bilan yoki sinovlarsiz o'qishga taklif qilishga qaratilgan reklamalar ko'paydi. Bu kabi muassasalarda o'qishga qiziqish

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent shahridagi Vestminster universiteti, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Toshkent shahridagi I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Olmaliq shahridagi Moskva po'lat va qotishmalar instituti, Toshkent shahridagi Puchon universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti qo'shma fakulteti, Toshkent shahridagi Yoju texnika instituti, Latviyaning Axborot tizimlari menejmenti oliy maktabiga ishonish mumkin.

bildirgan abituriyentlar va ularning ota-onalaridan ushbu ta'lim muassasalarining diplomlari yurtimizda tan olinishi bo'yicha inspeksiyamizga ko'plab savollar kelib tushmoqda.

Odamlar, avvalo, oliy ta'lim muassasasida o'qishni taklif etayotgan jismoniy shaxs yoki vakil, yuridik shaxsdan, birinchi navbatda, o'sha OTM o'z davlatida rasmiy akkreditatsiyadan o'tkazilganmi, uning amal qilish muddati, reyting ko'rsatkichlari, ta'lim shakli va muddati bilan, albatta, qiziqib ko'rishlari kerak.

Bundan tashqari, masofadan turib o'qish orqali ham diplom va'da qila-yotganlarga umuman ishonmaslik darok. Ayni paytda O'zbekistonda oliy ta'lim kunduzgi, kechki va sirtqi shaklda olib borilib, amaldagi qonunchilikda oliy ta'lim olish uchun masofaviy ta'lim shakli nazarda tutilmagan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob 36-bandiga asosan,

Mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar; 1992-yil 1-yanvargacha xorijiy OTMlarga o'qishga kirganlar; Yevropa sifat kafolati assotsiatsiyasi (ENQA) tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar; AQSh, Avstraliya, Isroil, Kanada, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya davlatlarining vakolatli organlari tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar; mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O'zbekiston vazirlik va idoralari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar; O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha xorijiy OTMlarga maqsadli o'qishga yuborilganlarning diplomlari ham sinovlarsiz tan olinadi.

xorijiy OTMlarda masofadan turib o'qigani uchun berilgan diplomlar O'zbekistonda tan olinmaydi.

Qator xorijiy OTMlar bakalavriat uchun 3 yil yoki undan kam muddatga sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qishga taklif etmoqda. Yurtimizda sirtqi ta'limda o'qish muddati 5 yil etib belgilangan bo'lib, xorijiy davlatlarda kasbiy ma'lumot to'g'risida hujjat beradigan ta'limning umumiy me'yoriy davri (to'liq umumiy o'rta yoki o'rta ma'lumot olingandan keyin) O'zbekiston davlat ta'lim standartlarida nazarda tutilgan davrdan ikki yildan kam bo'lsa, hujjatlarini tan olish rad etilishi belgilangan. Shuning uchun xorijiy OTMlarning bakalavriat yo'nalishi bo'yicha

oliy ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ldi. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi bilan ta'lim sohasida hukumatlararo bitimlar imzolandi. Yurtimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallariga ishonch bildirish mumkin. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent shahridagi Vestminster universiteti, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Toshkent shahridagi I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Olmaliq shahridagi Moskva po'lat va qotishmalar instituti, Toshkent shahridagi Puchon universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti qo'shma fakulteti, Toshkent shahridagi Yoju texnika instituti, Latviyaning Axborot tizimlari menejmenti oliy maktabi kabi oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan kelishuvga asosan joriy qilingan qo'shma dasturlari mavjud OTMlar shular jumlasidandir.

Mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar; 1992-yil 1-yanvargacha xorijiy OTMlarga o'qishga kirganlar; Yevropa sifat kafolati assotsiatsiyasi (ENQA) tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar; AQSh, Avstraliya, Isroil, Kanada, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya davlatlarining vakolatli organlari tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar; mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O'zbekiston vazirlik va idoralari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar; O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha xorijiy OTMlarga maqsadli o'qishga yuborilganlarning diplomlari ham sinovlarsiz tan olinadi.

Abdurahim NOSIROV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat
inspeksiyasi bosh boshqarmasi
boshlig'i

sirtqi ta'lim shaklida 3 yil yoki undan kam muddatda o'qib olingan diplomlar yurtimizda o'tmaydi.

Abituriyentlar chet elda o'qishni istasa, avvalo, jahondagi kuchli TOP — 1000 talikka kirgan OTMlarga ko'proq ishonish mumkin. Chunki bu ro'yxat dunyoning yetakchi reyting agentliklari THE (Times higher education), ArWU (Academic ranking of world universities), QS (World university ranking) natijalari asosida tuzilgan bo'lib, bu OTMlarda ta'lim sifati ta'minlanadi. Shuningdek, mazkur OTMlar tomonidan berilgan diplomlar O'zbekistonda maxsus sinovlarsiz, to'g'ridan to'g'ri tan olinadi. Top—1000 talik ro'yxatiga Rossiya Federatsiyasining 27, Qozog'istonning 5, Ukrainaning 3 ta oliy ta'lim muassasasi kiritilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari, qo'shma fakultetlar, qo'shma dasturlar orqali oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratilmoqda. So'ngi 2 yilda 30 dan ortiq muassasada

Yozma nazorat turlari va oʻquvchilarning yozma savodxonligini oshirish

Shodiyor Toʻrayev nomi gazetxonlarimizga yaxshi tanish. Soʻnggi ikki yilda muallimning ona tili va savodxonlik masalalariga bagʻishlangan qirqdan ziyod maqolasi chop etildi va mutaxassislarning eʼtirofiga sazovor boʻldi. Quyidagi maqola ijodkor pedagogning vafotidan oldin yoʻllagan soʻnggi materiali. Uni oʻqish asnosida oʻqituvchini mudom bezovta qilib turgan masala nimaligini anglaysiz. Va dunyoda qorin toʻygʻazish, hashamatli uylar qurish, qoʻsha-qoʻsha avtoullovlar olish, dabdabali toʻylar qilishdan-da kattaroq masalalar borligini tushunasiz...

“Maʼrifat” gazetasi 2018-yil 15-avgust sonida eʼlon qilingan “Savodsizlik haqida oʻttizinch maqola” nomli qaydlarimizdan keyin kimdir eshitir, shunga yarasha chora-tadbir qoʻllar, deb umidvor boʻlgan, bu mavzuga boshqa qaytmamiz, deb niyat qilgan edik. Soʻzimiz aks-sado bermay, boʻshliqqa jimgina singib ketayotgan boʻlsa-da, oʻlarmalik qilishimizga sabab chuqur ildiz otgan bu muammoni bartaraf etmay, nafaqat oʻqituvchilik faoliyati, balki jamiyat intellekti taraqqiyoti haqida gapirish oʻrinsizligini anglaganimizdir. Ushbu maqola ichida ayrim eski fikrlarga duch kelsangiz, bu masala bugun ham dolzarbligiga yoʻyarsiz. Maqola keyingi paytda urfga aylanayotgan iddaolardan tozalansa, sof metodik tavsiyalarga ega boʻlasiz va u kimdadir asqotishiga umid bogʻlaymiz.

Ona tili va adabiyot darslarida oʻquvchilarning yozma savodxonligini oshirish borasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi: **imlo qoidalarini ongli oʻzlashtirish, ijodiylik, fikrni aniq, loʻnda, qisqa va tushunarli bayon etish.**

Oʻquvchi yozma savodxonligini oshirish maqsadida taqvim-mavzu ish rejasida koʻrsatilgan muddatlarda **insho, bayon** hamda **diktant** kabi yozma ish turlarini muntazam oʻtkazib borish belgilangan.

Yozma ish turi oʻquvchi bosqichma-bosqich oʻzlashtirgan imlo qoidalariga mos ravishda tanlanishi, oʻtilgan mavzular boʻyicha oʻquvchi oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilmogʻi, oʻquvchilarning oʻrgangan bilimlarini qay darajada amalda qoʻllay olishini aniqlashga yoʻnaltirilmogʻi kerak.

Taqvim-mavzu ish rejasiga asosan yozma ish turlarini oʻz vaqtida oʻtkazish mumkin, ammo uning natijasi qanday boʻlishiga koʻra tadbirlar ishlab chiqilmogʻi — bosh masala.

Aslida, oʻquvchining savodxonlik darajasi saboq berayotgan oʻqituvchiga hali nazorat ishlari boshlanmasdan avval aniq boʻladi. Chunki koʻpi bilan uch dars oraligʻida oʻquvchi aylanma daftarlarini tekshirish sinchkov murabbiyga bu imkoniyatni beradi.

Shu oʻrinda nafaqat til sohasidagi, balki uyga yozma vazifa beriladigan matematika darslarida ham aylanma daftarlarning muntazam tekshirilishi har bir oʻquvchi bilan individual ishlashning debochasi va bajar-maslik mumkin boʻlmagan zaruriy tashxis ekanini aytib oʻtmogʻ joiz. Agar ushbu ishni nimagadir qiyoslash joiz boʻlsa, oʻqituvchilik faoliyatining asosi, yuklarni tenglashtirishning teng yarmi sifatida baholash oʻrinlidir. Aylanma daftarlarni tekshirish kundalik odatiy mashgʻulot sifatida bir stavka dars egasidan har kunda kamida ikki, nazorat oʻtkazilgan kundan keyin nazorat turiga qarab uch-

toʻrt, baʼzan besh-olti soat vaqt talab etadi. Aylanma daftarlar tekshuruvchi oʻquvchi savodxonligini aniqlashdan tashqari, savod oʻrgatish borasida ham bemisli ahamiyatga ega. Toʻgʻri tekshirilgan soʻz, jumla yoki gap imlo meʼyorlari borasidagi amaliy muloqot tarzida oʻquvchi esida oson qoladi va keyingi amaliyotda mayogʻ vazifasini oʻtadi.

Sinfda va uyda bajarilgan matn yaratishga oid topshiriqlarni har bir oʻquvchi kesimida nuqta, verguligacha eʼtib bilan tekshirish oʻqituvchiga muayyan oʻquvchining yutuqlari va boʻshliqlarini aniqlash, keyingi darslarda ularga munosabat bildirish imkonini yaratadi. Oʻquvchilarning yozma savodxonligi DTS talablaridan past darajada boʻlsa, oʻqituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qoʻshimchalar kiritishi yoki oʻquvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qoʻshimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. Faqat bu darslar internetda “Toʻgarak ish rejasi” deya taqdim etilayotgan ona tilidan taqvim-mavzu ish rejasining chala nusxasi shaklida emas, balki oʻquvchilar real bilim, malaka, koʻnikmalarining tashxisiga asoslangan, maqsadli belgilangan mavzularga oid saboqlar boʻlmogʻi kerak. Aytaylik, savodxonlik asosida qisqa lugʻat, notoʻgʻri diktant (“Maʼrifat” gazetasi, 2013-yil 12-oktabr)lar, oʻquvchilar uchun matn yaratishga oid uyga berilgan vazifalar yoki ijodiy yozma ishlarida yoʻl qoʻygan uslubiy xatoliklarni bartaraf etish, punktuatsion va imlo qoidalarini bandlar boʻyicha mavzulashtirib oʻrgatish (albatta, mashgʻulotni koʻp bilim yuklamasi bilan “boyitmaslik”, shundogʻam oʻz tengqurlaridan ortda qolayotgan oʻquvchini kompleks bilimlar bilan zalla qildimasdan, unga zaruriy, esda qoladigan, ortda qolayotgan oʻquvchi koʻtaradigan bilimlarni singdirish va saboddan keyinogʻ amaliyotda qoʻllashi mumkin boʻlgan koʻnikma va malakani shakllantirish)ga qaratilmogʻi lozim.

Oʻquvchi dasturda belgilangan DTS talablarini hamma vaqt ham risoladagiday uddalay olmasligi mumkin. Buning bosh sababi, oʻquvchilarning quyi sinflarda yoki oldingi mavzularda oʻrganishi kerak boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarida boʻshliq yuzaga kelganidir. Bu boʻshliq barcha uchun bir xil — standart boʻlmaganidan bu masalaga har bir oʻqituvchi individual — ijodiy yondashishiga toʻgʻri keladi.

Odatda, yuqori sinf oʻqituvchilarning boshlangʻichdan qabul qilib olgan oʻquvchilari karra jadvalini bilmasligi yoki oʻqish tezligi minimum talabga javob bermasligi haqidagi shikoyatlarini koʻp eshitamiz. Bu sifatsiz saboq “meva”larini tengqurlari darajasiga yetkazish deyarli imkonsiz, chunki yuqori sinf oʻqituvchisining bunday oʻquvchi bilan karra jadvali yoki oʻqish tezligi borasida shugʻullanishdan ham koʻra muhimroq muammolari yetarli boʻladi. Shu bois ham bugungi maktab bitiruvchilarning anchaginasini savodi “gʻovla-

ganlar” safida bosh egib turadi. Bejiz qozoq xalqining ulugʻ oqini Abay: **“Ishning omadi — oʻz vaqti”**, demagan.

Oʻqituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarni ham eʼtibor bilan oʻrganib chiqmogʻi, har bir oʻquvchi yoʻl qoʻygan xatolarni belgilab olmogʻi va ular asosida guruhlangan xatolar roʻyxatini tuzmogʻi, umumiy xato va kamchiliklarni frontal koʻrinishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

Aytaylik, undalma va kirish soʻzlar mavzusi oʻtilgan darsdan keyin undalma va kirish soʻzlar ishtirok etgan matn tanlanishi va ushbu matn boʻyicha diktant olinishi mumkin. Avvalambor, dars oʻtish jarayonida undalma va kirish soʻzlar mavzusi puxta oʻrgatilishi, undalmalarda undash faqat shaxslarga emas, balki narsa-hodisalarga nisbatan ham qaratilishi mumkinligini; kirish soʻzlarning barcha ifodalagan modal maʼnolari, ularning sof va vazifadoshligini darslik hamda qoʻshimcha misollar orqali fahmlashga — ongli idrok etishga ragʻbatlantirish zarur. Bugun, shubhasiz, yomgʻir yogʻadi. Bugun yomgʻir yogʻishi shubhasiz gaplarida kirish soʻzning vazifadosh va mustaqil soʻz sifatidagi koʻrinishlari keltirilgan. Ushbu gaplar tarkibidagi qaysi bir shubhasiz soʻzi kirish soʻz, qaysi biri mustaqil soʻz ekanligiga oʻquvchining fahmi yetmas ekan, u bu soʻzlarning imlosida xatoliklarga yoʻl qoʻyishi muqarrar.

Demak, oʻquvchining yozma savodxonligiga tamol toshi yozma ishlar yozish jarayonida emas, balki imlo qoidalariga oid mavzularni oʻrgatish jarayonida qoʻyiladi. Yozma ish bir necha bosqichni qamrab oladi. Shunga koʻra diktant, bayon, insho kabi yozma ishlardan har birining bir qancha tarmoq mavjudi, ularidan maqsadli foydalanishga koʻzlangan samararni beradi.

Diktant nisbatan moʻtadil yozma ish turi sanaladi. Uni aʼlo bahoga yozish uchunlik qiyinchilik tugʻdirmaydi. Yozma ishning bu turida oʻquvchining erkin fikrlashiga zarurat sezilmaydi, chunki tayyor matn aytib turiladi va oʻquvchi yozaveradi. Shu oʻrinda hatto diktovka (oʻqib yozdirish) talablarini barcha oʻqituvchilar ham bilmasligi haqida aytmoqchimiz. Diktovka jarayonida yuqori sinf oʻquvchilariga boʻgʻinlab, quyi sinf oʻquvchilariga soʻz yoki jumla taʼkidlab oʻqilayotgan, notoʻgʻri talaffuz qilina-yotgan, notoʻgʻri toʻxtam holatlariga duch kelaymiz. Bu oʻz oʻquvchining faqat oʻz oʻqituvchisi diktovkasiga koʻnikma hosil qilganini koʻramiz. Bilimlar bellashuvlarida notanish oʻqituvchining diktovkasi oʻquvchilarni esankiratib qoʻygan holatlar kuzatilmoqda.

Diktantning oʻziga xos sharti oʻz lugʻaviy maʼnosidagi diktovka — aytib turib yozdirish degan tushunchadan koʻra muhimroqdir. **Diktant — bu eshitganingizga yozish emas, balki aytayotgan soʻzning ongda, shuunda muhrlangan suratini nusxalash.** Shuning uchun ham aytib turish — diktovka qanday boʻlishidan qatʼi nazar, oʻquvchining toʻgʻri yoza olishiga erishish bosh masaladir. Oʻquvchi **aqil, fahm** kabi bir boʻgʻinli soʻzlarda qator kelgan undoshlar orasida qisqa **i** unlisi eshitilsa-da, yozilmasligini;

zidlov, sabab va aniqlik bogʻlovchilaridan oldin vergul qoʻyilishini ongli idrok etmasa, bahosi “yaxshi” yoki “aʼlo” boʻlishidan umidvor boʻlmaslik kerak. **Demak, diktant uchun ham faqat diktant yozayotgan paytni muhim deb belgilamaslik zarur.**

Shu oʻrinda oʻquvchi savodxonligini oshirishda eng muhim manba sanalgan diktant va bayonlar toʻplamlari, yuqori tashkilotlardan nazorat yoʻrigʻida kelayotgan yoʻriqnomalar savodxonligi xususida ikki ogʻiz gapirish oʻrinlidir. Amaldagi diktant va bayonlar toʻplamlaridan ehtiyoj boʻlib foydalanish lozim, chunki biror matn yoʻqki, uni imloviy, punktuatsion yoki uslubiy tuzatishlardan birisiz foydalanib boʻlsa. Bu xulosalarimizga atayin misollar keltirmaymiz, chunki bu xatoliklarni na mualliflar, na nashriyot boʻnyiga oladi. Bundan tashqari, ularidan foydalanayotgan salgina savodi bor mutaxassis, bu iddaoga isbot qidirish zaruratini sezmaydi.

Qissadan hissa shuki, RTM yangi (2019-2020) oʻquv yiligaacha sinflar va mavzular kesimida koʻp (kamida uch) variantlilik asosidagi mavzuviy materiallardan iborat mukammal diktant va bayonlar toʻplamlari nashri xususida amaliy ish qilmogʻi lozim. Ammo bu masala shu darajada imkonsizki, hech kimning masʼuliyatini oʻz zimmasiga olishga yuragi betlamaydi, chunki:

birinchidan, imlo qoidalar mavjud, ammo unga har kimning munosabati har xil;

ikkinchidan, lotin yozuviga asoslangan tinish belgilari qoidalar xalq muhokamasidan oʻrgan holda ishlab chiqilgan.

Demak, mukammal diktant va bayonlar toʻplamlarini yaratishdan oldin imlo hamda tinish belgilarga oid qoidalarda bir toʻxtamga kelib olish zarur.

Bu masala hal qilinmas ekan, ona tili taʼlimi haqidagi hamma gaplar safsata, “quloqqa nimadir tiliish”dan boshqa narsa emas. Masala dolzarbligi anglanib, yechim topilganida esa bu qoidalariga asosan bajarilishi zarur ishlarning strategik koʻlami muammosi yuzaga keladi. Buni oʻylab aqlingiz shoshadi, kelajak avlod foydalanishi shart boʻlgan Besutun togʻidan kam boʻlmagan nashr manbalari tartiboti, takror foydalanish mumkin boʻlgan kino va multiplikatsion filmlarning qayta dublyaji... Aytaversak, dard koʻp.

Bundan tashqari, taʼlim samaradorligini tekzor oshirish maqsadida diktantning elektron variantlarini qoʻllash amaliyoti kechikmoqda. Aslida, hali hech kim bu masalada bosh qotirib koʻrganini ham yoʻq, kimningdir shu boradagi loyihalari boʻlsa, biz undan xabar topgan boʻlar edik. Ushbu maqola guvohligida, yaʼni bu haqda birinchi boʻlib soʻz ochayotganimiz bois loyihaga daʼvogarlik qilmoqchi ham emasmiz. Bu loyiha kim tomonidan amalga oshirilishi bosh masala emas, muhimi, toʻgʻri yoʻlga qadam qoʻyishdir. Ammo biz elektron darslik yaratishda “kuchli”, “zoʻr”, malakali dasturchilar yordamiga muhtojmiz, ona tilidan elektron darslik deb taqdim etilayotgan loyihalarining talabga javob bermaganligi bois mukammal, nafaqat maktab oʻquvchilari foydalanadigan, balki jahon xalqlari

vakillarining oʻzbek tilini oʻrganishga imkonini beradigan universal elektron darslik yaratish loyihasi uchun dasturchi xizmatiga muhtojligimizni bildiramiz. Kimda bu masalada hamkorlik qilish istagi paydo boʻlsa, “Maʼrifat” gazetasi tahririyatiga murojaat etishi mumkin.

Mabodo, bu ishni ham kimdir bizdan avval uddalasa, aslo ranjimagan, qaytaga xursand boʻlgan boʻlar edik.

Har bir muassasa faoliyati asosini ifodalovchi yoʻriqlar, tamoyillar, vazifalar haqidagi muhim maʼlumotlar, shiorlar, eʼlonlardagi xatoliklar uchun kimdir javobgar. Maktablarda bu ish masʼuliyati ona tili oʻqituvchilari zimmasiga yuklatilgan, ammo qadamimiz yetgan maktablarning bironlasida quvonarli holatning guvohi boʻlmadik.

Yuqori tashkilotlardan keladigan yoʻriqnomalarning ayrimlari quyi boʻgʻindan talab etilayotgan savodxonlik sifatiga ega emasligi kishini oʻylantiradi.

Oʻquvchi savodxonlikning maʼlum bosqichini oʻtagandan keyin diktantga nisbatan murakkabroq boʻlgan bayon yozishga oʻrgatiladi. **Bayon diktantdan oʻz ijodiyligi bilan farqlanadi.** Unda oʻquvchining ijodkorligi matnning tinglash jarayonida koʻz oldiga keltirgan, eslab qolgan manzara, holat, voqealar rivojini tasavvurida tiklagani holda individuallashtirishi — oʻz tilida oʻziga xos ifoda tanlashida namoyon boʻladi. Oʻquvchi bu oʻrinda matnning boyitishi, jonlantirishi, tasviriy ifodalardan oʻrinli foydalanishi yoki, aksincha, borini buzib, uslubiy xatoliklarga yoʻl qoʻyishi mumkin. Bunday paytlarda muayyan oʻquvchining har bir gapi, jumlasini, soʻzlarni bir-biriga bogʻlashi, umuman olganda, ifoda texnikasi haqida fikr yuritishga, yoʻl qoʻyilgan xatolikni bartaraf etib, qoʻlga kiritilgan muvaffaqiyatni ragʻbatlantirishga toʻgʻri keladi.

Insho bayonga nisbatan ham ijodiy yondashuv borasida yuqori maqomda turadi. Unda izlanuvchanlik, maʼlumotlar toʻplash, saralash, umumlashma xulosalar chiqarish, eng muhimi, goʻzal badiiy ifoda yetakchilik qiladi. Bu boradagi urinishlar juda mashgaqatli jarayon boʻlib, oʻquvchi va oʻqituvchidan ancha ter toʻkishni talab etadi. Bu esa alohida mavzu.

Yozma ishlarning barcha turlaridan keyin imlo va uslubiy savodxonlik taqvim-mavzu rejasiga asosida tahlil darslari bilan mustahkamlanadi. Ushbu darslarning samarasi beqiyosdir. Garchi ijodiy ish tugaganday taassurot tugʻdirda-da, tahlil darslarisiz ijodiy ish yakuniga yetmagan hisoblanadi. Tahlil darslari oʻziga xos sabab, keyingi ijodiy ish uchun namuna vazifasini oʻtashda tengsiz mashgʻulot sanaladi.

Oʻquvchilarning yozma savodxonligini oshirish boʻyicha maktablarda qilinayotgan ishlarning barchasini koʻngildagiday deb boʻlmaydi. Oʻquvchilarning bilimlar bellashuvi va fan olimpiadalari natijalari shuni koʻrsatmoqdiki, ona tili va adabiyotdan ushbu tadbirlarda ishtirok etgan eng sara oʻquvchilar ishlari ham boʻshliqlar anchagina. Oʻquvchilar yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklar ichida eng koʻp uchragani **tinish belgilarga oid xatolar** sanaladi. Undalma, kirish soʻz, bogʻlovchilar, uyushiq boʻlak-

larning vergul, izohlanayotgan boʻlaklarning vergul, qavs yoki tire bilan ajratilishi, ega va ot kesim orasida tirening qoʻllanilishi, xullas, tinish belgilarning qoʻllanilishiga oid bilimlarda boʻshliq yaqqol koʻzga tashlanadi.

Garchi **tinish belgilari** xatoligi xatoliklar darajasida quyi pogʻonani egallasa-da (baholash mezonlarida baʼzan 3-4 tinish belgisi bir imlo xatosiga tenglashtiriladi), ularga bepisdan munosabatda boʻlish mumkin degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Ayrim holalarda tinish belgilari sintaktik munosabatni boshqargani bois uslubiy xatoga yoʻl ochadi: **Azi: akam keldi — Azi, akam keldi.**

Kulgili boʻlsa-da, oʻquvchilar ishlarni tekshirishda (chiziqcha)ni tinish belgisi xatoligi deb hisoblab yozgan oʻqituvchilar borligi haqida gapirishga toʻgʻri kelmoqda. Nuqtali vergul oʻrinda vergul, tire oʻrinda ikki nuqta yoki, aksincha, ikki nuqta oʻrinda tire qoʻllash nafaqat maktab oʻquvchilari ishlari-da, balki matbuot va kitob nashrlarida ham koʻp uchraydi.

Ikkinchi turdagi xatolik savodxonlikning asosiy mezon boʻlgan imlo xatolaridir. Ushbu xatolar miqdori 7 va undan oshsa, ish “qoniqarsiz” baholanishi lozim. Kimdir ushbu xatolikni ham koʻp va koʻp boʻlmagan turlarga ajratar ekan, baholash mezonlari shubha ostida qoladi. Bundan tashqari, bir paytlar “Mushtum”da oʻqiganimiz: “Sholi hosildorligini oshirishda qurbaganing roli” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi yoqlangani kabi “Qoʻpol va koʻpol boʻlmagan xatolar lugʻati”ni ham tuzishga urinib ketamiz. Soʻz imlo — toʻgʻri yozish meʼyorlariga amal qilmasdan yozildimi, “muallifi”ni ayab oʻtirish — ortiqcha rahmdillik. Rahmdillik ham meʼyor oldida oqizdir, shundogʻam, mos matn uchun 1 imlo va 1 tinish belgisi xatosi bilan yozilgan ishni “aʼlo” baholash ragʻbat borasida chidasa boʻladigan saxovatdir.

Ammo shoh — shox, sheʼr — sher koʻrinishidagi paronim (talaffuzdosh) juftliklardan birini boshqasi oʻrinda qoʻllash imlo xatoligi emas, balki soʻz qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatolikdir. **Shox masharraf chaqirdi. Shoir sher oʻqidi.** Bu nafaqat kulgili, **chidab boʻlmas darjadagi sharmandali** hol hamdir.

Bayon va insho imlo xatolari eng koʻp uchraydigan yozma ish turlari boʻlganidan (diktantda 4-5 ta imlosi qiyin soʻz dars taxtasiga yozib qoʻyiladi) amaliyotda ikkinchi — savodxonlikka qoʻyilayotgan baholar “2” — “qoniqarsiz”dan oshmagandigan oʻqituvchi 2 soatga moʻljallangan yozma ishning ikkinchi bahosini jurnalga hamma vaqt ham qoʻyavermaydi: “Boshogʻriq kimga kerak?!” Ijodiy ishlarning savodxonlik uchun qoʻyiladigan ikkinchi bahosi muntazam qoʻyib borilsa, samaradorlik keskin pasayishi, hatto ayrim oʻquvchilarni **sinfda qoldirish** muammosi ham paydo boʻlishi mumkin.

Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. 9-sinf oʻquvchilari oʻquv yili soʻngida nazorat turi sifatida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy ishning ikki bahosi shahodatnomaga — birinchi baho adabiyot, ikkinchi baho ona tiliga — qoʻyilar ekan, boshogʻriq istamaydigan imtihon oluvchi oʻqituvchi vaziyatdan qanday chiqaypti?

Ona tili va adabiyotdan bilimlar bellashuvi yoki fan olimpiadasining tuman bosqich-

lari gʻoliblarini aniqlashda hakamlar uchun qulaylik yuzaga kelgan. Bunda nisbatan savodli oʻquvchilar ishini tekshirish yetarli, **bugun tumanlar miqyosida nafaqat savodxon oʻquvchi, balki savodxon oʻqituvchilar ham kanyob.** Bu fan olimpiadasi va bilimlar bellashuvi apellatsiyalari paytida savodxon oʻquvchi eʼtirozlariga tayinli javob topolmay qolayotgan ayrim hakamlar misolida yaqqol oʻz isbotini topmoqda.

Ijodiy ishlarda uchrayotgan xatolardan keyingisi uslubiy xatolardir. Ularning vahimasi oʻziga yarasha: baholash mezonlarida bir uslubiy xato 3-4 imlo xatosiga tenglashtiriladi. Bu xatolarning ildizi individning murgʻak davri va kitobxonlikka borib taqaladi.

“Gripnga dori yedim”, — desam, 5 yashar nevaram Doriyor: “Dorini yeb boʻlmaydi”, — dedi. Men: “Suyuq dorilar ichiladi, tabletkalar yeyiladi”, — deb fikrimni yoqlamoqchi boʻldim. “Baribir, — dedi u qatʼiy, — dori yeyilmaydi”. Unga uslubiyatdan kim saboq berdi ekan?

Oramizda oʻsmirlik va undan oshgan yoshdagi “murgʻaklar” borligi tasodif emas. Ularning badaniga kitobdan allergiya toshadi. Ular jon-jahdi bilan oʻzlarini kitobdan olib qochadi. Natijada dunyoqarashi torayib, fikrlashdan mosuvo boʻladi. Ona tili oʻqituvchisi uchun uslubiy xatolikka oid xatolarni izlash zarurati yoʻq, chunki u har kuni oʻquvchilar daftarini tekshirar ekan bu xatolar qarshisida boʻy koʻrsataveradi. Mana ularning “klassik” namunalari:

Mutolaa qiluvchi kishiga farqi yoʻq, u asarmi, romanni...

Kitob inson qalbidagi misli kamalakdir...

Kitob shunchalik kuchli xazinadir, u insonni maʼnaviyatini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Jaydarichasiga aytganda, uslubiy xatolik eplab gap tuzolmaslikdir. Unda soʻz maʼnodoshlaridan oʻrinsiz (nojoʻya) foydalanish: Goʻzal qiz Oysulvning **basharasi**da ...; paronimlarning oʻrnini almashtirib qoʻllash: Bu narsa doʻstimga qiziq **tuyildi**; soʻz maʼnosini anglamaslik: Zebinning **xasligligiga** havas qilaman; kelishik shakllarini farqlamasdan qoʻllash: **Insonni kitobga boʻlgan munosabati...**; oʻrinsiz takror: **Oʻrik daraxti koʻp yillik daraxt boʻlib, u sariq rangda boʻlib, dagni qattiq boʻlib, magʻzi juda shirin boʻladi** va boshqa shu kabi holatlar kuzatiladi. Bu xatolardan muhofazalangan boy soʻz xazinasiga ega kitobxon oʻquvchining yozma nutqida uslubiy xatoliklar kam uchraydi.

Kitobning oʻzi soʻz qoʻllash, ifoda texnikasi borasidagi bilim, koʻnikmalarni oʻqituvchidan koʻra samarali oʻrgatadi. Buning birgina sababi Qodiriyning ifoda texnikasi bilan oʻqituvchi salohiyati orasida osmon bilan yercha farqda emas, balki Qodiriyning yozuvchi, oʻqituvchining yozuvchi emasligidir. Qodiriyning “Uloqda” hikoyasidagi **“Manim uyqum oʻchdi”** ifodasini **“Manim uyqum qochdi”**ga oʻzgartirib boʻlmaganligi anglash oʻqituvchi salohiyatining belgisi, bu salohiyat hammada ham yoʻqligi — boshqa masala. Oʻqituvchidan qodiriylikni talab qilmaymiz, uning muallim boʻlishi yetarli.

Qodiriy esa muallimning hurmatini joyiga

qoʻygan, uni eʼzozlagan, unga havas qilishdan orlamagan boʻlardi.

Biz bir ulugʻ yozuvchimiznigina misol keltirdik. Mana bu ifoda ham faqat kitob (M.Norbekov, “Tentakning tajribasi”, 1-kitob, Toshkent: “Spectrum Media Group”, 2017, 24-bet)da bor: **“Qanaqasiga? — demim nafasim ichimga tushib, pastki jagʻim naq kindigimgacha osilib”**. A.P.Chexov hayrati oʻzgacha: “Men dengizning mukammal taʼrifini 6-sinf oʻquvchisining inshosida uchradim, u: **“Dengiz kaaaaatta edi”**, — deb yozibdi”.

Oʻquvchi kitobga oshno qilish nafaqat uslubiy xatolarni bartaraf etish, balki yozma nutqni shakllantirish debochasidir. **KITOB-XONLIKSIZ TAʼLIM VA TARBIIYA HAQIDA NAFQAT GAP, BALKI SOʻZ HAM ORTIQCHA.**

Maksimalistlar biz yozuvchi emas, oʻquvchiga taʼlim-tarbiya beramiz, deb iddao qilishmasin, chunki oʻquvchingiz maktab davrida oʻqishi lozim boʻlgan 150—200 kitob mutolaasi bilan yozuvchi boʻlib qolmaydi, bor-yoʻgʻi risoladagi oʻquvchi muqomiga ega boʻladi, xolos. Yozuvchi boʻlish uchun oʻqilgan kitoblar miqdori muhim emas, balki kitob ichida yashash kerakligi muhim!

Uslubiy xatolarni bartaraf etish uchun juda doʻp ter toʻkish zarurati yoʻq. Bor-yoʻgʻi oʻquvchilarning kitobga oshno qilsangiz, kifoya. Muhtaram oʻqituvchi, birorta oʻquvchingizni kitob oʻqishga qiziqтира oldingizmi? Unda ishingiz — “besh”. Mabodo, unday boʻlmasa, hali ham kech emas. “Maʼrifat” gazetasi 2019-yildan boshlab oy boshidagi sonlarida maʼlum asarlarni oʻqish va unga taassurot yozish topshirigʻini bajarishga urinib koʻring. Gazeta tavsiya etayotgan asarning eng taʼsirli oʻrmini avj nuqtasida kechib oʻqib yoki aytib bering, qolganini oʻquvchingizning oʻzi eplaydi. Siz 3-4 nazorat ishlari tahlili darslarida uslubiy xatolar ustida puxta ishlasangiz, keyingi nazorat ishlari daftar hoshiyasidagi W belgisi ishora qilgan gapdagi xatolikni oʻquvchining oʻzi bartaraf eta oladi va bora-bora uslubiy xato qilmaslikka erishadi. Uslubiy xatolikni bartaraf etish, avvalambor, barcha uchun birday qiziqarli mashgʻulot sanaladi. Biron oʻquvchining uslubiy xatolikka yoʻl qoʻyilgan gapi hammaning eʼtiborini tortadi. Gap “muallifi”dan boshqa barcha gapdagi gʻalizlikni oson koʻradi va silliqilay oladi. “Muallifi”ning ushbu gʻalizlikni payqamasligi tayin, chunki payqaganida gapni boshqachga ifodalagan boʻlar edi. Uslubiy xatolik ustida ishlarni ekan, eng toʻgʻri yoʻl ushbu xatolikni “muallifi”ning oʻzi bartaraf etishiga erishishdir. Mabodo, bu ish uning qoʻlidan kelmasa, boshqalarga imkoniyat berish lozim. Siz bu xatolikni juda tez bartaraf etishga urinib toʻgʻri variantni taqdim etishga shoshilmang. Xatolikni oʻquvchilar toʻgʻrilashiga imkon bering, chunki bu ularning oʻziga boʻlgan ishonchini oshiradi.

Maktablarda qoʻzgʻozdagi monitoring gu-ruhi ishlarni yoʻlga qoʻyish nafaqat yozma sav

O'qituvchi minbari

Bolaligimdan qolgan yodgorlik

Har 4 yilda yangi o'quvchilarni qabul qilganimda, ularni bolaligimdan esdalik, men uchun aziz, qimmatbaho kundaligim bilan tanishtiraman. O'quvchilik davrimdagi yozuvlarimni, xulqimni, baholarimni, ustozlarimning, qolaversa, ota-onamning imzolarini ko'rgan bolalarning ko'zida hayrat, hayajonni ko'rib, 34 yillik kundaligimni yanada asrab-avaylashni, bugungi kun yoshlari tarbiyasida asqotishi mumkinligini o'ylayman.

Adashmasam, 1985-yili 5-sinfda o'qib yurgan paytlarimdagi bu kundaligimga 34 yil to'ldi. O'quvchilarimga ta'lim-tarbiya jarayonida kundalik yuritishni o'rgatayotgan daqiqada o'zim tutgan kundalikni namuna qilib ko'rsataman. Ayrim erinchoq, vaqtda kundaligini yuritib bormaydigan bolalar nuqul bir xil gapni qayta-qayta yozadi: "O'qib kelish, aytib berish". Xullas, nomigagina to'ldiradi. Shunday bolalarga har bir fandan berilgan topshiriq aniq, ochiq yozilishi kerakligi, kundalik o'quvchining qaydnomasi sifatida ham zarurligini ta'kidlayman. Avvalgi o'quvchilarim olgan baholarimga qiziqardi. Hozirgi o'quvchilarim ancha sergak, hushyor, barisini nazardan chetda qoldirmaydi. 4-sinfga ayni kerak daqiqada kundalikni ko'rsatganimda bir o'quvchim: "Ustoz, sizning 5"

bahongiz ustozingiznikiga juda o'xshab ketarkan", deganda, o'zim ham bunga shu paytgacha sira e'tibor bermaganimni angladim. Qiziqib, yaxshilab taqqoslab, o'quvchimning zeh-niga qoyil qoldim.

Yana bir quvnoq, sho'x o'quvchim Jasurbek: "Ustoz siz ham 2" baho olganmisiz?" deb savol berdi. Shunda kundaligimning 42-sahifasidagi matematika fanidan katta qilib qo'yilgan "2" bahoni ko'rsatdim. O'quvchilarim umrida "2" bahoni ko'rmagandek ko'zlari katta-katta bo'lib kundalikka yopisha ketishdi. Bir o'quvchim "Vazifani tayyorlab kelmaganmidingiz, ustoz?", desa, boshqasi yana savolga ko'mib tashladi. Shunda men ularni tinchlantirib, matematika darsida yangi mavzuga quloq solmay she'r yozib turganim bois jazolanganligimni aytganimda, "Nega shu paytgacha bu 2" ni

ko'tarib yuribsiz, yirtib tashlasangiz ham bo'lardi-ku", deya biddirladi a'lochi Ruxshona.

Shunda o'quvchilarimning boshini silab, "Inson hayotda rostgo'y, kamchiligini tan ola biladigan, faqat yutuqlar bilan g'ururlanish emas, xatolarini tushunib yetadigan bo'lib ulg'ayishi lozim. Bunday insoniy fazilat egasi bo'lib kamolga yetganlar katta hayot ostonasida ham to'siqlarni yengishga o'zida kuch topa oladi. Chorasiz qolmaydi", deya nasihat qildim. Agar "2" bahoni yirtganimda sizlar balki menga ishonmay qolishingiz mumkin edi. Chunki kundalik sahifasidan yirtilganini ayrim ziyrak bolalar darrov bilib oladi. O'quvchilarimga bolaligimdagi "2" ham "5"larim qatori qadrdonligini, uning ortida aziz ustozimning imzosi qo'yilganligini, bular men uchun nechog'lik mo'tabarligini uqtirib o'tdim.

Darsim so'ngida marhum ustozlarimni, ularning bejirim imzolarini, baholarini yodga olib, kundaligim haqida yozgan she'rimni o'qib berdim.

Dilnoza RO'ZIMUROD qizi
Vobkent tumani

Ta'kid

Kreativlikka e'tibor zarur

Yodingizda bo'lsa, ta'lim jarayonida kreativlikka e'tiborni kuchaytirish zarurligi haqida yozgandim. Endi o'sha fikrimni biroz izohlamogchiman.

Bugun biz o'quvchiga turli mashqlar berib, uni bajarishini yoki kitobdagi ma'lumotni yod olishini talab qilamiz. Shunga ko'ra baho qo'yamiz. Bir qarashda bu oddiy holdek tuyuladi. Ammo bu yo'l bilan o'quvchilarni faqat baho uchungina o'qishga o'rgatib qo'yish mumkin.

Qolaversa, biz ularidan allaqachon yozib qo'yilgan bilimni qayta yozish yoki masalani qaytadan bajarib berishni so'rayotganimizni tushunishimiz kerak! Bu o'quvchini bir qolipdan chiqmay ishlashga undash-ku! Yodlab olsa bas, bahosi besh degani-ku! Menimcha, masalaga biroz boshqacha yondashgan ma'qul.

Ya'ni har qanday vaziyatda ham o'quvchini o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish kerak. Aytaylik, biror masalaning ikki xil yechimi bo'lsa, birdan ikkala yechimni ham o'quvchiga ko'rsatmasdan: "Sen masalani yana qanday usulda yechgan bo'larding?" deb so'rash mumkin.

Yoki geografiya fanida o'quvchilarga Yer sharining dumaloq ekani va o'z o'qi atrofiga aylanishini o'rgatmogchi bo'lsak, ma'lumotni shunchaki bermasdan, bolalarni tasavvur qilishga undash mumkin. "AQSh qaysi tomonimizda?", "U yerga bori uchun qaysi tarafga yurish kerak?", "Nima deb o'ylaysiz, Yer qanday shaklda?", "Nega fasillar doim bir vaqtda takrorlanaveradi?" kabi savollardan foydalanish lozim.

Nima bo'lganda ham bir qoidaga amal qilish kerak: yaxshi o'qituvchi o'quvchiga qayerga qarashni ko'rsatadi, ammo nimani ko'rish kerakligini o'quvchining o'ziga qo'yib beradi. O'quvchi esa mustaqil fikriga tayanib, narsalarni tasavvur orqali ko'radi. Bu juda samarali usul.

Hozir ma'lumotlarni yod oldirib, o'qitayotgan tizimimiz bizga nima berishi mumkin? Keling, buni ham ko'rib chiqamiz. Qayerdadir maktabda a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilardan ajoyib xodim, nari borsa, rahbar yordamchisi chiqadi, deb o'qigandim. Chunki ular avvaldan boshqalar bergan ma'lumot atrofiga o'ralashib, buyruqlarni a'lo darajada bajarishga o'rgatilgan bo'ladi. Aksincha, u qadar ham a'lo bahoga o'qimaydiganlardan esa yetakchilar chiqishi mumkin. Sababi ularning mustaqil fikri hali bo'g'ilmagan bo'ladi.

Ravshan MATMUSAYEV

Bugunning gapi

Bola va televizor

Oiladan keyingi o'rinda maktab tarbiyachi hisoblanadi. Intellektual salohiyatni rivojlantirish, intizomga o'rgatish maktab muhiti zimmasida O'smirning maktabdan tashqari vaqtdagi hayoti qanday? "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi". Bo'sh vaqtini to'garakka yo'naltirgan yoki aksincha soatlab televizor qarshisida o'tirib, seriallar-u ko'ngilochar dasturlarni tomosha qiladiganlar ham yo'q emas.

Ish yuzasidan poytaxtga yo'lim tushdi. Bir oila a'zolari hamrohim bo'ldi. O'smir yoshdagi farzandlarining suhbat e'tiborimni tortdi:

— Tezroq yetib borsak edi. "Chuqur" to'r joyiga kelib qolgandil!

— Vey, "Chuqur"ingni qo'y, Dip Aroxi deb o'ylab Tarani otib qo'ydi, endi buyog'i "dahshat" bo'ladi, — deya entikdi qiz.

Opa-ukalar serial tafsilotlari to'g'risida to'liqlanib so'zlashadi. Yosh "serialshunos"lar suhbatiga oldingi o'rindiqdagi ona qo'shilib:

— Dadasi, shu seriallarning diski chiqqan bo'lsa, olaylik! Qo'shni xotinlarga oxiri qanday tugashini aytib maqtanaman, — dedi ruldagi eriga qarab.

Ensam qotdi. Ota-ona serialga mukkasidan ketsa, bolasi-dan nimani kutish mumkin?

Darhaqiqat, kattalar televizorni qudratli qurolga aylantirib olgan zamonda yoshlar nima qilishsin? Ularning tajovuzkorligi, ko'rganini amalda sinab ko'rish ishtiyoqining ortishi ana shu illat ortidan kelib chiqmayaptimi? Televizorda shunday kadrlar namoyish etilyaptiki, bu jamiyat gultoji — oilaga xavf solmoqda. Behayolik, yaqinlariga nisbatan hurmatsizlik, azob chekayotgan kishilar, singan qo'l-oyoq, qonli lavhalar va shunga o'xshash manzaralari bo'lmagan serial bormi? Tasvirdan ta'sirlangan o'smir ko'rganlarini hayotda qo'llamoqda. Bola istagining cheki yo'q. Televizor qutisida xuddi sigaret yorlig'idagidek ogohlantirish bo'lishi lozim. Chunki televizorni uzoq vaqt tomosha qilish kashandalik kabi ruhiy qaramlikni keltirib chiqaradi.

Televizion — ta'sirchan vosita. Serial tufayli barcha ijtimoiy qatlam vakillarining yasama obrazlari paydo bo'ldi. Masalan, "ayol" deganda yuzini makiyaj qilib, allambalo kiyimni egniga ilganlar, "yoshlar" deganda tor jinsi shim, kepka, yelkasida sumka ilib olganlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu "ommaviy madaniyat" unsurlaridan boshqa narsa emas. Telekranda namoyish etiladigan ochiq-sochiq, behayo, tajovuzkor tasvirlar o'smir hayotida turli muammolarning kelib chiqishiga turk bo'lmoqda. Bola ekrandagi zo'ravonlik sahnalari-

dan ta'sirlanadi, albatta. Buning ta'siriga tushib qolgan farzandlarimiz dars tayyorlayotganda ham fikrini jamlay olmaydi. Ota-ona bilan birgalikda tomosha qiladigan bunday filmlar bola his-tuyg'usini zaharlaydi.

AQShliklarning "Peopledia" qomusida keltirilgan so'rovnomaga natijalariga ko'ra, 1000 nafar kishining televizordan voz kechishi so'ralgan. Shundan 46 foizi million dollardan kam pul uchun televizordan voz kechmasligini, 25 foizi esa shuncha pul berilganida ham bunday qilmasligini aytgan. Kishilarning televizorga shu qadar qaramligi bolalikdan boshlanish kerak.

— Mutaxassislarda televizorning zarari haqida har qancha ta'kidlarni, dunyoni suv bossa ayrim ota-onalarning to'pig'iga chiqmaydi, — deydi Yoshlar ittifoqi Kitob tuman kengashi raisi Jasur Rasulov. — "Kamxarj enaga"ning ma'naviy zarari, televizor qarshisida o'tkazilgan bekorchi vaqt haqida o'yab ham ko'rishmaydi. Xorij seriallari voyaga yetmaganlarda film qahramonlariga taqlid tuyg'usini shakllantirib qo'yimoqda. Tarixiy koreys serialiga taqlid qilib, mahalla bolalari bir-birlarini tig'li jism bilan jarohatlashgan. Ichkilikbozlik, ziyofat, shohona hayot yoshlardagi qanoat tuyg'usini zaiflashtirib, shon-shuhratga qiziqishni oshirayotgani yanada achinarlidir.

Ammo televizor ko'radigan hamma bola ham salbiy tomonga o'zgaravermaydi. Agar bolaning yetarli darajada bilimi bo'lib, haqiqiy hayot bilan sun'iy, emmak hayotning farqini tushunsa, tashvishlanishga o'rin yo'q.

Ota-onalar, pedagoglar shunday yo'l tutishi kerakki, bola oila sharoitida televizor ko'rsatuvlardan unumli foydalanсин!

Komila OQQO'ZIYEVA,
Kitob tumanidagi 74-maktabning
tarix fani o'qituvchisi

Nuqtayi nazar

Qiziqarli yozish siri

— Salom, o'rtoq!
 — Salom, hammasi OKmi?
 — Yomonmas.
 — Bugun darsga kelmading?
 — E, qo'ysang-chi, darsda nima qilaman? Bir "знаменитый" bloggerning kursiga borgandim. Sening xabaring yo'qmidi?
 — Eshitgandim. Qanday bo'ldi?
 — Zo'r! "Как писать интересно" mavzusida gaplashdik.

— Biz esa tahririyatga bordik, mashhur jurnalistlar bilan fikrlashdik.
 — Qiziqmisan, hozir birov gazeta o'qirmidiki, jurnalistga ehtiyoj bo'lsa, bloggerlarning davri kelgan...

"Blog" va "blogger" so'zlari bugun kundalik hayotimizdan faol o'rinda egallagan. Hattoki ba'zilar "jurnalist" so'zini "blogger" atamasi bilan almashtirib ham ulgurdi.

Avvalo, bu tushunchaning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlariga nazar solsak. Yaqin tarixda birinchi blog sifatida tilga olinadigan "Links.net" 1994-yili amerikalik erkin jurnalist Justin Holl tomonidan yaratilgan. Asosan yaratuvchining shaxsiy qaydlaridan iborat bo'lgan bu blog hozirgi ko'rinishdagi laridan mutlaqo farq qilgan. Unda muallif o'zining kundalik voqea, reja va o'y-fikrlarini bayon qilib borgan. Bir so'z bilan aytganda, ilk bloglarning ijtimoiy qamrovi zamonaviy avlodlariniki kabi keng bo'lmagan.

"Weblog" atamasi va bloggerlik faoliyati bevosita Jorn Bejer nomi bilan bog'liq. 1997-yilning 17-dekabrda u mazkur so'zni va o'z blogini ommaga taqdim etdi. Ayni shu yili Charlotte Observer ham o'z blogi bilan kuzatuvchilar diqqatini torta boshladi. Jurnalist Jonathan Dabb esa bloggerlik faoliyatiga o'zi

ga xos, ya'ni jurnalistik yondashuv bilan kirib keldi. Uning har bir posti dolzarbligi, hali hech kim xabar topmagan yangiliklardan iboratligi bilan barchaning e'tiborini tortdi.

Ko'rib turganingizdek, jurnalistika kabi u qadar olis o'tmishga ega bo'lmagan bloggerlik faoliyati 2000—2004-yillarda tezlik bilan rivojlanib bordi. 2005—2010-yillarda muvaffaqiyat cho'qqisini zabt etdi. Texnika taraqqiyotining jadallashishi uning rivojiga rahnamolik qildi. Chunki kompyuter va qo'l telefonlarining zamon va makon qarshiliklarini parchalay olish imkoniyati bloglarning tezkorligiga xizmat qildi. Bugun OAV muxbiri eshitgan yoki guvoh bo'lgan yangiligini tahririyatga kelib, yozib, tahrir qilib, o'quvchiga yetkazaman degunicha, bu ma'lumot bloggerlarning sahifasida yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi bloggerlik faoliyatida yaxshi ma'nodagi burilishlarga sabab bo'lmoqda. Endi turli bloglar o'rnini telegram tarmog'idagi ijtimoiy kanallar faollik bilan egallamoqda. Bunday keskin raqobat maydonida omon qolish uchun ko'plab bosma nashrlar ham ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini yaratmoqda. To'g'ri-da, agar o'quvchiga axborot olishning elektron usuli ma'qul bo'lsa, nega endi gazetalar o'z mahsulotini internet orqali yetkazmasligi kerak? Ammo hozir bu ham u qadar samarali natija bermay qo'ydi. Nega? Chunki gazetalarining elektron ko'rinishlari ham zamonaviy o'quvchilarning ta'biga mos tushmayapti, ularda e'lon qilinadigan chuqur mulohazali maqolalarga ko'pchilikning tishi o'tmagani sabab vaqt tig'izligini bahona qilishyapti. Masalaning asl muammosi o'zi chindan ham vaqtmi? Gazetxonlar sonining ka-

mayishiga chindan ham vaqt tig'izligi aybdormi?

Bu kabi savollar bilan kimga yuzlanmang, "axir biz XXI asrda yashayamiz-ku", degan javobni olasiz. O'ylanib qoladi kishi, faqat biz XXI asrda yashayapmizmi? Agar butun dunyo shu asrni boshidan kechirayotgan bo'lsa, nega unda texnika taraqqiyotida bizdan ham ilgari ketgan davlatlarda hali ham gazeta o'qishyapti? Nega Yaponiyada har bir odam boshiga bir necha minglab gazeta to'g'ri kelmoqda?

Javoblar turlicha, kimdir bu holatni xalqning ma'naviy darajasi bilan bog'lasa, yana kimdir nashrlarning salohiyat ko'rsatkichlarini vaj qiladi. Aslida esa noshirda ham, mushtariyda ham ayb bor. Biri ancha yillardan buyon eshitganini xonadan chiqmay o'tirib yozishga o'rganib qolgan. Ikkinchisi esa vaqt tig'izligini ro'kach qilib, qisqa xabarlariga usta bo'lgan bloggerlar tomoniga o'tib oldi.

Bugun jurnalistika sohasiga qadam qo'yayotgan yoshlarning aksariyati o'z bloglarini yaratishga, yana ham aniqrog'i, ijtimoiy tarmoqlarni ajabtovur postlari bilan zabt etishga intilishmoqda. Hatto dars qolib, turli bloggerlarning treninglarida ishtirok etishni ma'qul ko'rmoqdalar. Bunday treninglarda ko'p o'quvchi yig'ish, qanday qilib qiziqarli yozish sirlari o'rgatilmish. Balki bunday sirlarni o'rganish ham bo'lajak jurnalist uchun foydadan xoli bo'lmas, qachonki uning qalami mashq qayrog'ida charxlangan bo'lsa. Xo'sh, bunday qayroqni qayerdan topsa bo'ladi? Albatta, tahririyatdan. O'quvchi hukmiga havola etiladigan axborotni, avvalo, to'g'ri bayon qila olish, uning dolzarb jihatlarini ko'rsatish va o'rni kelganda o'quvchiga

tahlil qilib berish ko'nikmalarini egallash uchun tahririyat tegirmoniga tushib chiqish kerak. Ana shunday ko'nikmalarni o'zlashtira olganlar esa bloggerlarning trening saboqlaridan samarali foydalanishlari mumkin, nazarimda. Chunki bunday darslarning asl zamirida axborotni to'g'ri bayon qilish emas, balki uni reklama qilish yotadi. Ammo reklama har qancha jimjimador va ko'zni qamashtiradigan bo'lmasin, uning hiylasiga bir marta uchgan kishi ikkinchi marta buni takrorlamaydi. Qalami o'tkir va fikri tiniq jurnalist uning reklama sirlarini o'rganib olganida esa vaqt tig'izligi tufayli kishilar tafakkurida hosil bo'layotgan bo'shliqni to'ldirishga erishadi.

Yuqoridagi fikrlarimiz orqali har ikkala faoliyatni qoralash yoki oqlash niyatidan yiroqmi. Chunki birining vaqt bilan hamqadamligini rad etib bo'lmaganidek, ikkinchisining sermulo hazaligini tani olmay ilojimiz yo'q. Biroq tezkor, ammo tafakkurni to'ydira olmaydigan maqola ham kun kelib ong bilan bog'liq muammolarga sabab bo'ladi. Shu bois ham gazeta ijtimoiy kanallar tezkorligini o'zida mujassam etsa, ijtimoiy kanallar esa asrlar silsilasidan o'tgan gazetaning tahlil va tanqid usullarini o'rganib olsa, har ikkinisining ham yarmi butun bo'lgan bo'lar edi.

— Xulosa qilishga biroz shoshmagin, o'rtoq.

— Yo'q, men baribir fikrimdan qaytmayman!

— Unda bunday qilamiz, ertaga o'rin almashamiz, sen tahririyatga borasan, men esa treningga.

— Kelishdik.

Ertasi kuni:

— Ha, o'rtoq, trening qanday bo'ldi?

— Zo'r! Bilasanmi, yaxshi maqolani avval reklama qila olish kerak ekan, yana... xullas ertaga bafurja gaplashamiz. O'zingda qanday bo'ldi?

— Zo'r bo'ldi! Bilasanmi, bitta vergul yoki nuqta butun boshli matn mazmuniga ta'sir qilishini endi bilib oldim...

Mukarram OTAMURODOVA

Kuzatuv

"Seni To'maris deb maqtaganim bor"

XX asr o'zbek she'riyatida ona va ayol mavzusida eng ko'p va xo'p ash'or bitgan shoirlardan biri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir. "Insoniyatni birlashtirib, umumlashtirib turadigan bir hissiyot bor. Bu — muhabbat, mehr tuyg'usi. Nazarimda, bu tuyg'uning sarchashmasi Ayol, doyasi Ona! Ayol, ona bo'lmasa, mehr-muhabbat tuyg'usi yo'qday. Insoniyat adashib ketadiganday, yo'lini yo'qotadiganday...", deya bitgan edi genial shoirimiz A.Oripov.

Shoirning "Ko'zlarim yo'lingda", "Onajon", "Ruhim", "Yurtim shamoli", "Yillar armoni", "Ishonch ko'priklari" singari to'plamlaridan joy olgan "Onamga xat", "Onam vafotiga", "Ayol", "Onajon", "Ona", "Alisherning onasi", "Onamni eslab", "O'zbek onasi" she'rlari, shuningdek, "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" nomli fantastik asari ham uning dunyodagi eng buyuk zot — onaga,

ayolga bo'lgan tengsiz ehtiromining, hurmatining cheksiz e'tirofi yanglig' yaralgan. Shoir ona, ayol mavzusidagi she'rlarida "munis", "mehribon", "mushtipar", "buyuk", "suyuk", "kuyunchak" sifatlarini ona timsoliga egiz tushunchalar kabi qo'llaydi:

Mushtipar ham o'zing, buyuk ham o'zing,

Kuyunchak ham o'zing, kuyuk ham o'zing,

Olamga tatirlik suyuk ham o'zing,

Payt keldi aytmogga, gapning xonasi,

Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.

O'z vaqtida ancha bahs va munozaralarga sabab bo'lgan "Ayol" she'ri orqali shoir nafaqat urush oqibatida o'z juftidan ayrilgan va sadoqat, vafodan bir umr so'zlashni afzal ko'rgan ayollarga, balki, hozirgi kunda ham oilasiga, umr yo'ldoshiga vafodor bo'lgan o'zbek ayoli siymosiga ham so'zdan haykal o'rnatdi. Shoir fikricha, ayol qalbi yovuzlikdan yiroq, ezgu tuyg'ularga maskan, haqiqiy insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Shoir she'rlarida ayol, eng avvalo, zahmatkash, munis, mushtipar va albatta,

mehribon millat onasi qiyofasida namoyon bo'ladi.

To'maris, Nodirabegim timsolida vatanparvar, o'z xalqiga, jufti haloliga sadoqatli, Vatan taqdiriga beparvo bo'lmagan oqila, xalqparvar, yurt uchun jonini beradigan qahramon ayol timsolini yaratishda shoir ko'p ham chiroyli, dabdabali so'zlar qidirib o'tirmaydi. Oddiy so'zlar bilan kitobxon ko'z o'ngida buyuk tarixiy haqiqatni tiklaydi:

Seni To'maris deb maqtaganim bor,

Sen Temur beshigin tebratgan bedor,

Sensan Bibixonim, Nodirayi zor,

Payt keldi aytmogga gapning xonasi,

Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Muxtasar qilib aytganda, A.Oripov she'riyatida ayol-oni timsoli katta bir mehr bilan yaratilganki, shoir lirikasi ixlosmandlari bu mehr bulog'idan doimo bahramandlik tuyishlariga ishonchimiz komil.

Maifuza PARDAYEVA,

Qarshi shahridagi 24-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Yevropadagi birinchi raqamli ta'lim tizimi

Yoxud Germaniya ta'limining yetakchi jihatlari

Bugun xorijda o'qish istagidagi yoshlarning aksariyati yuqori darajada bilim olish uchun, shubhasiz, ta'lim sifati bo'yicha Yevropada birinchilardan bo'lgan Germaniya davlatini tanlaydi. Har yili minglab xorijliklar Germaniya universitetlarida o'qish uchun hujjat topshiradi. Mamlakat nafaqat jahonda eng yaxshilardan hisoblangan ta'lim tizimi, balki aksariyat nomdor universitetlarida o'qish bepulligi bilan ham ko'plab chet ellik yoshlarni o'ziga jalb qiladi.



Germaniya ta'lim sifati hamda malakali kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratadigan davlatlar sirasiga kiradi. So'nggi yillarda mamlakat innovatsion universitetlar tizimi yuragiga, ta'bir joiz bo'lsa, zamonaviy ilmiy va intellektual faoliyat markaziga aylandi. Bu yerda barcha sohalar, ayniqsa, iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatlar ortida oliy ma'lumotli, yuqori bilim va tajribaga ega mutaxassislar turadi.

Germaniyada ta'limning o'ziga xos tizimi shakllantirilgan bo'lib, bu yerda bolalar 3—5 yoshda maktabgacha ta'lim muassasasi, 6—11 yoshda boshlang'ich sinf (Grundschule), 11—16 yoshda o'rta maktab (Allgemeineschule), 16—19 yoshda o'rta profil maktab (Gymnasium/Studienkolleg), keyin esa ixtiyoriy tarzda oliy o'quv yurtlarida tahsil oladi.

Boshlang'ich ta'lim 4-sinf gacha bo'lib, bolalarni baholash 3-sinfdan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga odatda matematika, musiqa, o'lkashunoslik va nemis tili fanlaridan boshlang'ich bilim beriladi.

O'rta sinf o'quvchilari o'qishni gimnaziya, real, asosiy, umumiy professional kabi bir qancha turdagi maktablarda davom ettirishi mumkin. Bolalar 5-sinf gacha o'tgach, intellektual qobiliyati va kelgusidagi rejalariga ko'ra ushbu maktablardan biriga yuboriladi. Iqtidorli bolalardan ilm-fan, boshqaruvchilik va biznes qiziquvchilar gimnaziya yoki real bilim yurtlarida o'qiy boshlaydi.

Gimnaziyalar maktabdagi eng nomdor maktablar bo'lib, ular o'quvchilarni universitetlarga tayyorlaydi. So'nggi yillarda gimnaziyalar "Abitur" nomi bilan omallashmoqda. Bu yerda uchta asosiy yo'nalish — umumiy, ijtimoiy va texnik fanlardan dars o'tiladi. O'qish yakunida o'quvchilar imtihon topshiradi va o'rta ta'lim shahodatnomasini qo'lga kiritadi.

Ammo gimnaziyalarda o'qish ham-maga ham nasib etavermaydi. Saralash jarayonida bahosi birmuncha pastroq o'quvchilar maktabda qoladi. Bu yerda bolalarga keyingi ta'limni ko'zda tutmagan holda, kasb-hunar ta'limi beriladi.

Shunga qaramay, 9-sinfni bitirguniga qadar o'quvchilarda sharoiti ancha yaxshi maktablarga o'tish imkoniyati bo'ladi. Ammo bu oddiy maktablarning obro'si gimnaziyalarnikidan pastroq ekanini anglatmaydi. Zero, mamlakatdagi turli sohalar faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassislarning aksariyati oddiy maktablar bitiruvchilaridir. Oddiy maktablar shunchaki, gimnaziyalardan ta'lim jarayoni va muddatiga ko'ra farq qiladi. Ya'ni real va asosiy bilim yurtlarida o'qish 10 yil bo'lsa, gimnaziyalarda ta'lim olish 12 yil davom etadi. Bola qaysi turdagi maktabni tamomlashidan qat'i nazar, o'qish yakunida "Abitur" imtihonidan o'tishi talab etiladi. O'rta maktabning har qaysi turini a'lo baholar bilan tamomlagan o'quvchilarga istalgan oliy o'quv yurtiga imtiyozli tarzda o'qishga kirish imkoniyati beriladi.

Germaniya ta'lim tizimi boshqa mamlakatlarnikidan nafaqat tuzilishi, balki akademik an'analariga ko'ra ham farq qiladi. Mamlakatda davlat tasarrufidagi va xususiy maktablar mavjud. Davlat maktablarini joylardagi hukumat vakillari boshqargani bois har bir hududdagi ta'lim dasturi, qonun-qoidalar, o'qishning boshlanish vaqti hamda ta'lim kunlari muddati bir-biriga o'xshamaydi. Mamlakatda kunduzgi maktablardan tashqari, o'quvchilar yashab ta'lim oladigan maktab-pansionlarni ham uchratish mumkin.

Germaniyada chet ellik abituriyentlarni universitetlarga tayyorlovchi talabalar kolleji — "Studienkolleg"lar mashhur bo'lib, u yerda mamlakatdagi universitetlardan biriga o'qishga kirish istagidagi, ammo o'rta ta'limda olgan bilimlari yetarli bo'lmagan o'quvchilarga dars o'tiladi. U oddiy tayyorlov kursi emas. Shu bois ushbu kollejda o'qish uchun ham yetarli bilimga ega bo'lish lozim. Kollejda o'qish ikki semestr davom etib, yakunda imtihon topshiriladi. Darslar, asosan, nemis tilida, abituriyentning universitetga kirishda topshiradigan kirish imtihonlari hamda tanlangan mutaxassislari uchun zarur fanlar bo'yicha o'tiladi. Kollejga o'z mamlakatidagi

maktabni tamomlagan xorijlik yoshlar qabul qilinadi. Bu yerda abituriyentlar Germaniyadagi nufuzli universitetlarga o'qishga kirishga tayyorlanish barobarida nemis tilini mukammal o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kollejda o'quvchilar 5 ta yo'nalishdan birini tanlaydi. So'ng bitiruvchilar T-kurs yakunida fizika va matematikadan, M-kurs yakunida biologiya yoki kimyo, fizika yoki matematikadan, W-kurs so'ngida matematika, iqtisodiyotdan, S-kurs yakunida chet tili, tarix yoki ijtimoiy fanlar, yoki geografiya, yoki nemis adabiyotidan, G-kurs so'ngida esa tarix, nemis adabiyoti, ingliz tili yoki ijtimoiy fanlar yoxud geografiyadan imtihon topshiradi. Ammo ularning bari-da asosiy imtihon nemis tilidan bo'lib o'tadi.

Germaniya ta'limidagi eng mashhur yo'nalish oliy ta'lim tizimidir. Mamlakat yuqori darajadagi oliy ma'lumot berishda nafaqat Yevropa, balki jahonda yetakchilardan hisoblanadi. Bu yerda 440 ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, ularning aksariyati dunyoning nomdor universitetlari qatorida turadi. 1386-yilda asos solingan Geydelberg universiteti mamlakatdagi eng mashhur oliy o'quv yurti hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda Myunxendagi XV asrda asos solingan Lyudvig-Maksimillan universiteti turadi. Die Bucerius Law School esa Germaniyadagi eng yaxshi yuridik universitet sifatida yetakchilik qilmoqda.

Bugun zamonaviy nemis universitetlari o'zida ko'plab fakultet va mutaxassislarni jamlagan ilmiy va o'quv markazi hisoblanadi. Bu yerdagi oliy o'quv yurtlarini bir qancha turga ajratish mumkin. Ular orasida texnik, pedagogik, teologik, musiqa universitetlari hamda maxsus san'at bilim yurtlari mavjud. Germaniyada institutlar ham nomdorlik borasida universitetlardan qolishmaydi. Ular muhandislik maktablari zahirida paydo bo'lgan va 100 dan ortiq yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydi. Bu turdagi oliy o'quv yurtlari an'anaviy universitetlarga nisbatan talabalarga qisqa vaqtga amaliy bilim berishi bilan ajralib turadi. Bu yerda o'qish muddati kam bo'lishidan tashqari, jarayonda nazariyadan ko'ra amaliyotga katta urg'u beriladi. Talabalar muhandislik ishi, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi kabi sohalar bo'yicha amaliyotda o'z ish tajribasini oshiradi. Shu bois, nemis abituriyentlari-ning chorak qismi, xorijliklarning esa 38 foizi institutlarda o'qishni afzal ko'radi.

Germaniyada ham xususiy, ham davlat universitetlari mavjud. Ularda mahalliy va xorijlik abituriyentlar uchun ko'plab bepul ta'lim grantlari ajratil-gani bois, bu mamlakatda tahsil olish-ga qiziquvchilar hamisha ko'p bo'lgan. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, birgina 2013-yilning o'zida mamlakatda-gi universitetlarda 282 200 nafar xorijlik yosh tahsil olgan.

Ta'lim muddati davlat universitetlari-da 4 yildan 10 yilgacha, xususiy univer-sitetlarda esa 3 yildan 5 yilgacha davom

etadi. Bu ko'pincha tanlangan universitet va mutaxassislikka bog'liq.

Nemis universitetlarida bakalavr das-turi 2 ta — boshlang'ich va asosiy bos-qichdan iborat. Birinchi kursda talabalarga asosiy fanlar bo'yicha umumiy bilim hamda ilmiy ishlar metodikasi o'qitilsa, keyingi kurslarda mutaxassislilik fanlari-dan dars o'tiladi. O'qish davrida talabalar bilimlari sinovdan o'tkazish maqsadida oraliq va yakuniy nazorat ishlari olinadi.

O'qish jarayoni har semestrda o'ti-ladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulot-lardan iborat. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ma'ruzalar davomida olgan bilimlari asosida mustaqil o'qib-o'rga-nishdan tashqari, o'z ilmiy ishlari bilan shug'ullanadi.

Germaniya oliy ta'limidagi asosiy qoida — "akademik erkinlik" bo'lib, bu yerda har bir talabani mustaqil iz-lanishi va o'z ilmiy tadqiqotlarini ta'lim jarayoni bilan bir vaqtda olib borishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, talabalarga fanlar va o'qish dasturini mustaqil tanlash huquqi ham beriladi.

Universitetlarda qishki semestr 1-ok-tabr dan 31-martgacha, yozgi semestr esa 1-apreldan 30-sentabrgacha davom eta-di. Talabalarni qabul qilish yilda 2 marta amalga oshirilib, yozgi semestr uchun arizalar 15-yanvargacha, qishki semestr uchun esa 15-iyulgacha qabul qilinadi.

Germaniya universitetlarida magis-tratura bosqichi ham yuqori darajada shakllantirilgan. Mamlakatdagi univer-sitetlarning bari nomdor bo'lishiga qara-may, bu yerda o'qish puli ancha arzon. Hatto har yili xorijliklar uchun ko'plab bepul ta'lim grantlari ajratiladi.

Magistratura bosqichi odatda 2 yil davom etadi. Akademik bilim darajasi yuqori bo'lgan magistratura bitiruvchi-lari shu yerning o'zida doktorlik ishlarini ham yoqlashlari mumkin.

Germaniyada talabalar uchun ikki turdagi magistratura bosqichida o'qish taklif etiladi. Ular konsekutiv — baka-lavr bilan bog'langan hamda nicht kon-sekutiv — bakalavr bilan bog'lanmagan magistratura bosqichlaridir. Birinchi tur-da talabalar bakalavr mutaxassisligini magistratura bosqichida davom ettiradi. Ikkinchisida esa magistratura mutaxas-sisligini tanlashda bakalavr yo'nalishi-ni inobatga olmagan holda, talabalarga to'liq erkinlik beriladi. Biroq ikkinchi turdagi magistratura bosqichini tan-lovchilar oz bo'lgani bois, barcha univer-sitetlarda ham bu dastur mavjud emas.

Nemis ta'lim tizimining yana bir o'ziga xosligi — ochiqlik va soddalik-dir. Barchaning oliy ma'lumotli hamda bilimli bo'lishi tarafdori bo'lgan huk-mat tomonidan universitetlarda o'tiladi-gan ma'ruza darslariga nafaqat talabalar, balki istalgan tinglovchining kirishiga ruxsat berilgan. Shu bois mamlakatda insonlar qo'lidagi oliy ma'lumot diplomi emas, balki ularning bilim va malakasi ko'proq qadrlanadi.

Yusupov Dilmurod Turdaliyevichning 05.05.01 — Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo'yicha "Kuch transformatorlarining moylarini tozalash energiya va resurstejamkor texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti va "Ilmiy-texnika markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 21-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (71) 246-46-00, 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz

Boboyev Akramjon Yo'ldashboyevichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "n-(GaAs)-p-(GaAs)_{1-x}(Ge)_{2x}(ZnSe), geterotuzilma-sining tuzilma-viy xususiyatlari, elektrofizik va fotoelektrik xossalari" mavzusida-gi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2019.FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. O'zMU qoshidagi YFMITI majlislar zali. Tel/faks: (71) 248-79-94, 248-79-92; e-mail: info@ispm.uz

Hamdamov Jonibek Jumayevichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Yarimo'tkazgichli tabiiy tolalarning elektrofizikaviy va optik xususiyatlariga tashqi omillar ta'siri" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2019.FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, O'zMU qoshidagi YFMITI majlislar zali. Tel/faks: (71) 248-79-94, 248-79-92; e-mail: info@ispm.uz

Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovichning 08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Paxtachilikda agrotexnik tadbirlar iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyatlash muhandislar instituti, Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.10.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Samiyeva Gulnoza Toxtirovnaning 08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'nalishlari" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislar instituti, Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.10.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Ramazanov Bahrom G'afurovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Aminoaldegid oligo(poli)merlari olinishi, xossalari, texnologiyasi va ularning ko'pchilik sanoatida qo'llanilishi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.29.12.2018.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Urolov Mustafuqul Qulurayevichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Ayrim bir yillik o'simliklar poyasidan selluloza olish texnologiyasini yaratish va ular asosida organik materiallar olish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.29.12.2018.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Jumaniyozov Ibrohim Otaxonovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Fotozeqir Ga₁In P/GaP geterotuzilmalarga va ular asosidagi pog'onali fotoo'zgartgichlarga to'plangan nurlarning ta'siri" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Fizika-texnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.FM/T.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 2-"B" uy. Tel/faks: (71) 235-42-91; e-mail: info.fti@uzsci.net

Yozgi ta'til tugab, maktab ham boshlandi. Ta'til davomida siz bilan miriqib kitobxonlik qildik. Ayniqsa, avgust oyida Gulliver bilan qilgan sayohatimiz bir yilga tatiydigan bo'ldi. Termiz tumanidagi 9-maktab o'quvchisi Gulnora Xolmurodova, Shofirkon tumanidagi 40-maktab o'quvchilari Mohinabonu Rustamova, Sultonali Rustamov, Romitan tumanidagi 23-IDUM o'quvchilari Umida Sobirova, Sarvinov Komilova, Feruza G'aniyeva, ushbu tumanidagi 13-maktab o'quvchisi Shahin Hasanova hamda Jizzax shahridagi 23-maktab o'quvchisi Muxlisa Toshpo'latovanning maktublaridan ta'til

vaqti ushbu asarning o'qilishi ayni muddao bo'lganini anglash qiyin emas. Tengdoshlaringizning asar haqidagi bir-biridan qiziqarli fikrlari bilan kelgusi sonimizda tanishishingiz mumkin.

Sentabr oyi uchun Chingiz Aytmatovning "Birinchii muallim" asarini mutolaa qilishni ma'qul ko'rdik. Asar haqidagi fikrlaringiz 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida gazeta yuzini ko'rishi ustozlaringiz uchun ham munosib sovg'a bo'ladi.

Eslatib o'tamiz, asar haqidagi fikr-mulohazalaringizni sentabr oyining so'nggi haftasiga — 23-sentabr kuni "Telegram" manziliimizga yoki marifat@info.uz elektron manziliimizga yo'llashingiz mumkin.



NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDA TASHKIL ETILGAN KASBIY QAYTA TAYYORLASH KURSIGA PEDAGOGIK VA NOPEDEGOGIK OLIY MA'LUMOTGA EGA BO'LGAN TALABGORLARNI BARCHA FAN YO'NALISHLARIDA O'QISHGA TAKLIF QILAMIZ.

Kursda o'qish istagini bildirgan talabgorlar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ➔ Diplom va ilovasi (asl nusxasi).
- ➔ Pasport nusxasi.
- ➔ Mehnat daftarchasidan nusxa.
- ➔ Ish joyidan ma'lumotnoma.
- ➔ 3x4 o'lchamli 6 dona fotosurat.
- ➔ Talabnoma (ish joyidan).

Ma'lumot uchun quyidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qiling: (90) 931-60-73, (97) 700-28-73.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-son qaroriga asosan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi akademik litsey 2019-yil 1-sentabrdan yuridik shaxs sifatida tugatilganligi ma'lum qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 101-"A" uy.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan 2009-yilda Usmonov Adxamjon A'zamjonovich nomiga 5320400 — Xalqaro jurnalistika BAKALAVR darajasini egallaganligi to'g'risida berilgan BN 033271 raqamli BAKALAVR DIPLOMI yo'qolganligi bois BEKOR QILINADI.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Kasaba uyushmasi qo'mitasi jamoalari O'zDJTU Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Davlat Matyakubovga ukasi **Qudrat MATYAKUBOV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Kasaba uyushmasi qo'mitasi jamoalari O'zDJTU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri Narzulla Jo'rayevga turmush o'rtog'i

Sanobar VOHIDOVA va nabirasi FARRUXBEKning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Qissadan hissa

Haydovchi va yo'lovchi

Ishga kechikayotganim uchun tak-sida ketishga to'g'ri keldi. Yo'lovchi mashinani to'xtatdim. Orqa o'rindiq-da ayol kishi o'tirgan ekan.

Manzilni aytdim, haydovchining yo'li o'sha tomonga shekilli, tanish savolni berdi: "Qancha berasiz?". Mo'ljallagan pulimga rozi bo'lmagach (yo'lovchisi borligini inobatga olgandim-da), so'raganiga ko'ndim. Nachora, ishxonaga tez-roq yetib olishim kerak. Ammo...

Yo'lda ketarkanmiz, haydovchi qo'l ko'targan barcha yo'lovchilar oldida birin-ketin to'xtardi. Biroq "ovi" yurishmasdi. Haydovchining asabiylashgani menga ham yoqmasdi. So'ragan pulini bersam, mijoz ruxsat-siz qo'shimcha odam olishga hadeb to'xtayversha, bu kimga yoqadi? Nima bo'lganda ham indamdim: shofyorni ranjitgim kelmadi.

Shu alfozda yetti-sakkiz marta to'xtadik. Oxiri birorta ham yo'lovchining manzili unikiga mos tushmagach, orqadagi ayolning sabr-kosasi to'ldi chamasi, birdan norozilik bildirar ketdi:

— Uka, bo'ldi endi, to'xtayvermag.

Biz ham shoshib turibmiz. Bunaqada taksining avtobusdan farqi qoladimi?

Haydovchi indamadi. Uzoq so'rash o'miga sado yo'q. Chorrahaga kelganda, haydovchi haligi ayolga qarab:

— Opa, sizni shu yerda qoldiraman, biz to'g'riga ketamiz, — dedi.

— Nega endi?

— Bu yerga burilsam, tirbandlikda qolib ketaman. Bu yog'iga birpasda yetib olasiz! 100 metr ham chiqmaydi.

Ayol asabiylashdi. Sumkasidan pul chiqarib, haydovchining qo'lga bermay, salonga sohib yubordi. So'ng mashina eshigini qarsillatib yopdi. Mashina egasi indamay qo'ya qolmadi:

— Beradigan ozgina puliga shuncha minnat!

— Kelishganingiz bo'yicha uni olib borib qo'yishingiz kerak edi! — deya e'tirozi noo'rin ekanini anglatmoqchi bo'ldim.

Ammo haydovchi o'zinikini ma'qul-ladi. Uning nohaqligini tushuntirishga harchand urinmayin, foydasi bo'lmadi. Manzilinga yetib keldim. Pulni berdim. Eng yomoni, ishga baribir kech qoldim.

Yaxshilar bor bo'lsin!

Ishxonadan allamahalda chiq-dim. Jamoat transportlari harakati to'xtagan. Uyga qanday ketaman? Masofa olis: qariyb yigirma kilometr. Cho'ntagimda esa bor-yog'i to'rt ming so'm qolgandi.

Taksi to'xtatdim:

— "Farhod" bozoriga.

— Xo'p!

— Necha pul bo'ladi?

— Mo'ljalingiz qancha?

— Yonimda to'rt ming so'm bor, xolos. Uygacha olib kirib qo'ysangiz, kamini berib yuboraman.

— Bo'pti, o'tiring.

— Qancha beraman.

— O'tirsangiz-chi tezroq, uydagilarni xavotirga qo'yman. Bu yog'i bir gap bo'lar...

Mashinaga o'tirib, ochig'i, o'yilab qoldim: uyga yetib borganimdan so'ng o'tning kallasiday pulni aytib yubor-sa-chi?

Ustiga-ustak, haydovchi yo'l-yo'lakay yo'lovchilar qo'l ko'tarsa ham to'xtamadi. Undan:

— Odam olib ketsangiz bo'lmay-dimi? — deya so'radim.

U esa jilmayib:

— Bu yerda to'xtash mumkin emas. Uch-to'rt ming so'm topaman deb, jari-ma to'lab yurmayin tag'in. Tunda "Yo'l patrul xizmati xodimlari bo'lmaydi-ku", deb ish ko'radigan haydovchilardan emasman. Yaratganning o'zi rizq-na-sibamizni yetkazadi. Insof sari baraka!

Qoyil! Odamiyligni qarang! Cho'chi-masam ham bo'larkan. Farazim kutga-nimdan-da ziyoda bo'lib chiqdi.

Uyimga yaqin chorrahaga yetga-nimda, mashinani shu tomon burishini so'radim. Lekin haydovchi:

— To'g'riga ketaman. Sizni shu yer-da qoldiraman. Bu yog'i yaqin, shunday-mi? Piyoda ham yetib olarsiz.

Kamina esa:

— Menga farqi yo'q. Ammo yo'l ha-qi-chi? Qolganini berishim kerak-ku! — dedim.

— Qo'yavering, shu pulni berave-ring, Olloh rozi bo'lsin.

Pulni haydovchiga uzatdim. Insof-di-yonatli kishilar ko'proq bo'lsa edi!

Ozoda VALIYEVA

Ziyo maskani bekasi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga kelgan inson borki, Ra'no opaning nomini hurmat bilan tilga oladi. Ra'no Ma'rufova bu dargohda ish boshlaganiga yarim asrdan oshdi. Sharqshunoslik instituti kutubxonasining shakllanishi bevosita opaning faoliyati bilan bog'liq.

Ra'no Ma'rufova (Aliyeva) 1937-yil 3-iyunda Toshkentda ziyolilar oilasida ta-vallud topgan. U yoshligidan kitobxonlik ruhida, kitobga mehr qo'yib ulg'aydi. 1957-yili maktabni tamomlashi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Eron-afg'on bo'limiga laborant bo'lib ishga kirdi. Ra'no opa ilk ishlaridan biri sifatida 1870—1917-yillari nashr etilgan "Туркестанские ведомости" gazetasi-ning mavzular bo'yicha qisqa kartotekasi va Ibn Sino nashrlari uchun ko'rsatkichlar tuzganini o'zgacha entikish bilan eslaydi.

Mehnat faoliyati bilan bir qatorda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti) pedagogika va psixologiya o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha sirdan o'qidi. 1963-yili Ra'no opa rasman Sharqshunoslik instituti kutubxonachisi sifatida ish boshladi. To shu kungacha kutubxonaning chinakam bekasi, ilm ahlining mezboni bo'lib kelmoqda.

Kutubxonachilik sohasida ulkan tajriba va mahoratga ega Ra'no opaning Sharqshunoslik institutida ishlayotganiga oltmish ikki yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan olimlar va davlat arboblarning yubileylari munosabati bilan ko'rgazmalar tashkil etish, o'zbekistonlik taniqli olimlarning shaxsiy kutubxonalarini tiklash bo'yicha tahsinga sazovor ishlar olib bordi. Jumladan, uning uzoq yillik mehnati natijasida yirik sharqshunos olimlar A.O'rinboyev, Q.Munirov, M.Hakimov, I. Petrushevskiy, O.Chexovichning shaxsiy kutubxonasiga tegishli manbalar tiklanib, tadqiqotchilarga foydalanishga topshirildi. Bu

shaxsiy kutubxonalar olimlarning mualliflik nashrlari bilan birga ularning faoliyati davomida to'plangan, mahalliy va xorijlik hamkasblarining hadya kitoblaridan tashkil topgan. Mazkur shaxsiy kutubxonalarga tegishli kitoblarga alohida shtempel yasatilib, har bir kitob muhurlangan. Kartotekalar tayyorlanib, kerakli shifrlar bilan maxsus kitob javonlariga tartib bilan joylashtirilgan.

Ra'no opaning ishlaridan yana biri Sharqning buyuk allomasi Ibn Sino hayoti va ijodiga bag'ishlab O'zbekiston, MDH va xorijiy davlatlarda chop etilgan maqolalar nuxsalaridan iborat 24 jildlik ilmiy-bibliografik majmua yaratganidir. Mazkur majmua kutubxonachilik talablariga to'liq javob beradigan shaklda tayyorlangan. Binobarin, u tadqiqotchilarning sinoshunoslik yo'nalishida adabiyotlarni qidirib topishlari uchun beqiyos qulaylik tug'diradi.

Ra'no opaga kerakli kitob yoki muallif nomini aytisangiz bo'ldi, ushbu kitob kutubxonada bor-yoqligini darhol aytadi. O'sha kuni kitobni topib berolmasa, bir necha kun o'tib, samimiy tabassum bilan xonangizga o'sha kitobni ko'tarib keladi. Bonus sifatida o'zingizni qiziqtirayotgan mavzu haqidagi qo'shimcha kitoblari va olimlar haqidagi ma'lumotlar bilan ham siylaydi. Shu bois ham o'zbekistonlik va xorijlik tadqiqotchilar Ra'no opaning samimiy xizmatini yuqori baholab, o'z monografiyalarida alohida minnatdorlik bilan esga oladi.

O. SULTONOV,

O'ZR FA Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

Kamtarin inson

Falsafa fanlari doktori, professor Ziyodulla Davronovning bolalik va yoshlik yillari urushdan keyingi og'ir, tiklanish yillariga to'g'ri keldi. Suyagi mehnatda qotgan Ziyodulla o'rta maktabni tamomlagach, mehnat faoliyatini paxta yig'ish korxonasida ishchilikdan boshladi. Keyinroq qurilish korxonasida ishladi. 1961—1964-yillari Buxoro qishloq xo'jaligi bilim yurtida o'qidi. So'ng Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ni imtiyozli diplom bilan tamomladi.



Ziyodulla Davronov ilm-fan sohasida o'ziga xos yo'nalishga asos solgan serqirra olim. U falsafaning o'ta murakkab muammolarini o'rganishga, bilishga va ularni yoritishga harakat qildi. Ustoz nomzodlik dissertatsiyasini "Возможность и действительность в структуре биологического знания", doktorlik dissertatsiyasini "Детерминизм и его роль в научном познании" mavzusida yozgan. Bu mavzularni yoritish uchun nafaqat falsafa, balki biologiya fanining barcha tarmoqlaridan xabardor bo'lish, ayniqsa, genetika, geoinjeneriya, mikro va makrobiologiya, sitologiya, gistologiya, fizika, iqtisodiyot kabi o'nlab fanlarning taraqqiyoti, ulardagi kashfiyotlarni tahlil qila olish zarur. Aytish mumkinki, Ziyodulla Davronov bu vazifani baholi qudrat uddalagan.

Shu kungacha ustozning 300 dan ortiq ilmiy ishi, 20 dan ortiq o'quv qo'llanma va risolalari chop etildi. Xususan, shu yilning o'zida "Ijtimoiy determinizm va iqtisodiyot" nomli monografiyasi va "Milliy g'oya" fanidan uslubiy qo'llanmalari nashr etildi.

Bir necha yildirki, ustoz tashabbusi bilan u tug'ilib o'sgan Qarshi tumani Kojor qishlog'idagi maktabda maxsus jamg'arma tashkil qilingan. Shu jamg'arma hisobidan yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga kitoblari taqdim etilib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirilmoqda.

Ayni damda Ziyodulla Davronov Toshkent moliya institutining "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida professor lavozimida o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda. Jamoada o'z o'miga ega. Talabalarga bilim berish, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari va ilmiy-ijodiy sohalarida faol ishtirok etayotir. Ustoz-shogirdlik munosabatlari Ziyodulla Davronov faoliyatida muhim o'rinda ega. Ustoz ilmiy izlanish olib borishni diliga tukkan yoshlarni doimo qo'llab-quvvatlaydi. Ularning takliflarini ma'qullab, qator falsafiy mavzularni taklif etadi. Agar fikrlar bir joydan chiqsa, tanlangan mavzuni qay tarzda yoritish zarurligi, dolzarbligi haqida maslahatlashib, o'sha damda reja tuziladi. Ustoz-shogirdlik munosabatlari shu tariqa boshlanib, chuqur ildiz otib, yillardan yillarga o'tib boraveradi.

Bahridin SALIMOV, falsafa fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligida 6-sentabr — "Kurash kuni" munosabati bilan "Kurash – milliy iftixorimiz, milliy g'ururimiz" mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Milliy sportimiz bayrami

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 6-sentabr sanasi yurtimizda "Kurash kuni" deb belgilangan edi. Vazirlik mutasaddilari, O'zbekiston kurash federatsiyasi vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etgan tadbirda so'zga chiqqanlar yig'ilganlarni sana munosabati bilan samimiy qutlab, kurashning o'tmishi va buguni haqida so'z yuritdi.

O'zbek xalqi asrlar davomida mardlik, bag'rikenglik, olijanoblik va halollik timsoli sifatida e'zozlab kelgan kurash milliy sporti uch yarim ming yillik tarixga ega, — dedi O'zbekiston kurash federatsiyasi raisining sport masalalari bo'yicha o'rinbosari Uyg'un Umarov. — Bugun ushbu sport turining xalqaro maydonda ham munosib tan olinayotgani ko'ksimizni yana bir karra faxrga to'ldiradi. Xususan, 2017-yil 20-sentabrda Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida Kurash milliy sportimiz ilk bor XVIII yozgi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgani biz uchun quvonchli voqea bo'ldi.

So'nggi yillarda kurashni aholi ayniqsa yoshlar o'rtasida yanada ommalashtirish, ushbu sport turini targ'ib etish orqali o'sib kelayotgan avlodga milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, kurashga qiziquvchi yoshlar soni yanada ortib, ular orasidan jahon maydonida yurtimiz bayrog'ini baland ko'taradigan polvonlar yetishib chiqmoqda. Yaqinda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan kurash bo'yicha jahon chempionatida ham vakillarimiz 9 oltin, 2 kumush va 2 bronza — jami 13 medalga egalik qilib, norasmiy umumjamoa hisobida faxrlı 1-o'rinni egalladi va butun dunyoga Alpomish avlodlari ekanliklarini yana bir karra isbotladi.

Shuningdek, anjumanda davlatimizning bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etilayotgani, "kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta" va "yonbosh" kabi atamalar xalqaro sport lug'atidan muqim o'rin egallayotgani ta'kidlandi. Yig'ilish so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Eslatib o'tamiz, shu kunlarda "Kurash kuni" munosabati bilan Respublikamizning viloyat va tumanlarida kurash tadbirlari qizg'in davom etmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Jismoniy tarbiya darslariga e'tibor

Yangi o'quv yilining shukuhi, ayniqsa, Toshkent viloyati Nurafshon shahridagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabida boshqacha bo'ldi.



— Maktabimizda 459 o'quvchiga 30 nafar pedagog ta'lim-tarbiya beradi, — deydi maktab direktori Ikrom Ortiqov. — 480 o'rinni ta'lim muassasamiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil iyun oyida Toshkent viloyatiga tashrifidan so'ng shakllantirilgan "Yo'l xaritasi" doirasida to'liq ta'mirdan chiqdi. Maktabni ta'mirlash ishlari 2 mlrd so'mdan ziyod mablag' sarflandi. Yangi o'quv yilida maktabimiz 46 nafar 1-sinf o'quvchisiga bag'rini ochdi.

— Ushbu maktabni 2013-yili tamomlaganman, — deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Nurafshon shahar kengashi raisi o'rinbosari, "Kamalak" bolalar tashkiloti raisi Islomjon Karimov. — Jismoniy tarbiya darsi uchun sport zali juda

xarob ahvolda edi. Yangi sport zalini ko'rib maktabda qaytadan o'qigim kelyapti.

Darvoqe, ushbu maktabning sport zalidan 2008-yildan beri foydalanilmayotgandi. Ta'mirlalibligi, zarur sport anjomlarining yetishmasligi 11 yildirki muammo edi. Yangi o'quv yilida bu muammolarning bari o'z yechimini topdi.

2019-2020-o'quv yilining birinchi kuni yana bir quvonchli voqea bo'ldi. Maktabning informatika xonasiga 16 ta kompyuter jamlanmasi topshirildi. Bu Xalq ta'limi vazirligi hamda Koreya Respublikasining "Korea Telecom Corporation" kompaniyasi hamkorligining ilk natijasi. Vazirlik va kompaniya o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq kelgusi yillarda mamlakatimizdagi maktablarga

yana 2890 ta kompyuter jamlanmasi yetkazib beriladi.

— Ikki yildan beri Toshkentda yashayman, — deydi "Korea Telecom Corporation" kompaniyasi vitse-prezidenti janob Li Sang Ki. — O'zbekistondagi maktablarda jismoniy tarbiya darslariga e'tibordan, to'g'risi, haligacha hayratdaman. Men o'qigan Koreyadagi maktablarda bunday sharoitlar mavjud emas. Sportga maktabdoyoq bu qadar e'tibor qaratish yoshlar salomatligida katta ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Bundan tashqari, O'zbekistondagi barcha maktablarni axborotlashtirish kerak, deb bilaman. Chunki, XXI asr — axborot texnologiyalari asri. Darslarni ham zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish o'qituvchiga yengillik berishi barobarida o'quvchilarga bilimni yetkazishda ham qo'l keladi. Masalan, mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalarida shunday sharoit bor. Xalq ta'limi vazirligi bilan imzolangan shartnoma bu boradagi ishlarning yaxshilanishiga zamin yaratadi.

"Bilimlar kuni" tantanalari chog'ida zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan informatika xonasining ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi. Shuningdek, "Korea Telecom Corporation" kompaniyasi vakillari maktabda o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, o'quv xonalari, sport zali va kutubxonani ko'zdan kechirdi.

Tadbirlarda Nurafshon shahri hokimi Qahramon Hakimov, Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Temur Komilov va "Korea Telecom Corporation" kompaniyasi bosh direktori janob Li Bek Xi ishtirok etdi.

Otabek ISROILOV

Hayotni qadrlashga o'rgatdi

"Turkiston" san'at saroyida "Hayot" loyihasi doirasida teatrlashtirilgan konsert dasturi bo'lib o'tdi.



Bu loyihaning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ham sog'lom tengdoshlaridan kam emasliklarini anglatish, ularning iqtidorni rivojlantirish, hayotga moslashishga ko'maklashishdan iborat.



Homiy tashkilotlar va saxovatpesha insonlar tomonidan tashkil etilgan bu loyihada Mirzo Ulug'bek tumanidagi 105-maktab-internat, Olmazor tumanidagi 106-maktab-internat va Yashnobod tumanidagi 52-ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari o'zlarining konsert dasturlari bi-

lan ishtirok etdi. Tadbirni 52-ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilari "Hayot" nomli qo'shiq bilan boshlab berdi. Ushbu maktabda tarbiyalanayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilar tomonidan ijro etilgan "Farishtalar" raqsi tomoshabinlarni to'qinlantirdi. Homiyilar tomonidan makta-

bimiz o'quvchilariga 4 dona nogironlar aravachasi sovg'a qilindi.

Tadbir yakunida barcha bolajonlarga homiyilar tomonidan sovg'alar va shirinliklar ulashildi.

Go'zal PO'LATOVA,
Yashnobod tumanidagi
52-ixtisoslashtirilgan maktab
o'qituvchisi

Ijod maktablarida

Iste'dodlilarga qanot

Bugun mamlakatimizda yosh ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, iste'dodini yuzaga chiqarish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday xayriy tashabbuslardan biri, shubhasiz, yozuvchi-shoirlar nomidagi ijod maktablarining tashkil etilganidir. Bular: Namanganda Ibrat, Nukusda Ibroym Yusupov, Jizzaxda Hamid Olimjon va Zulfiya, Farg'onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablaridir. Mazkur ilm dargohlari qatoriga bu yil Sirdaryoda Halima Xudoyberdiyeva, Xivada Ogahiy hamda Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari qo'shildi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda qaratilgan qaroriga muvofiq, ijod maktabi tashkil etildi. Shuningdek, ayni kunlarda poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog'ida adib ijodiga bag'ishlangan adabiy muzey, kutubxona va ijod maktabi binosining qurilishi ishlari davom etmoqda.

Mazkur ijod maktabiga 488 nafar nomzod orasidan imtihon asosida 120 nafar o'g'il-qiz 5-, 6-, 7-, 8-sinflarga saralab olindi. Davlat tadbirlaridagi faol ishtiroki uchun 5 nafar o'quvchi imtiyozli ravishda qabul qilindi. Ayni paytda ular Olmazor tumanidagi 119-maktab binosida o'qitilmoqda. Ijod maktabi o'quvchilari sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgani bilan kutlash, ijodiy uchrashuv tashkil etildi. Unda Yozuvchilar uyushmasi muassasalar, taniqli yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunoslar, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va Olmazor tuman XTB muassasalarining ijod maktabi o'qituvchilari, ota-onalar hamda omma-

viy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirni Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, ijod maktablari bo'yicha mas'ul Nodir Jonuzov olib bordi.

Tadbirda avvalida Abdulla Qodiriy hayotining so'nggi lahzalari — fojiali qismati aks ettirilgan videolavha namoyish etildi.

Shundan so'ng "O'zbekkino" milliy agentligi bosh direktori o'rinbosari Shuhrat Rizayev, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasining uzluksiz metodik xizmat bo'limi boshlig'i Nigora Ikromova, Olmazor tuman XTB mudiri Zamira Azimboyeva, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Nilufar Yo'ldosheva o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning ijodiy merosi, asarlarining ma'naviy hayotimizdagi o'rni to'g'risida fikr bildirish barobarida ijod maktabi o'quvchilarini kutlab, ular orasidan yozuvchining izdoshlari, milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shadi ijodkorlar yetishib chiqishiga umid bildirdi.

— Sizing ijodiy salohiyatingiz ham, inshog'ingiz ham, bilimingiz va qalami-



ngizning kuchi ham boshqa tengdoshlaringiznikidan ajralib turishi kerak, — deya o'quvchilarga murojaat qildi Bahodir Karimov. — Siz bir necha bosqichli sinovlardan so'ng buyuk yozuvchi nomidagi maktabga qabul qilindigiz. Bu — mas'uliyat demak. Kelgusida orangizdan adabiyotimiz, ona tilimiz, madaniyatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan zabardast ijodkorlar, adabiyotshunoslar yetishib chiqishiga ishonamiz. Bu yo'lda sizlarga zafarlar tilaymiz. Tadbirda ijod maktabi o'quvchilarning ota-onalari nomidan Ne'matilla Inog'omov so'zga chiqdi.

Ijod maktablarining tashkil etilishi juda maqbul ish bo'ldi. Ijodga ishtiyoqmand yoshlarga yanada keng imkoniyat eshiklari ochildi. Bu maktablarga davlatimiz rahbarining shaxsan e'tibor qaratayotgani esa yanada quvonarli. Qizlarim — Fotima va Zuhra Inog'omovalar ham yangi o'quv yilini shu dargohda boshladi. Farzandlarim qatori barcha o'quvchilarga o'quv yilini muvaffaqiyatli o'tkazishni, o'qib-o'rganishni yangi bosqichga chiqarib, bildirilgan

ishonchni oqlashni, Qodiriy bobomizning chinakam izdoshi bo'lib ulg'ayishni tilayman.

Ijod maktabi o'quvchilari ham mustaqilligimizning 28 yilligiga bag'ishlangan she'rlaridan o'qidi.

Qo'lga qalam olib, she'r-u hikoya mashq qilayotgan, kichik hajmdagi asarlarni chet tilga tarjima qilishga urinayotgan yoshlarning orzu-maqсадlari bilan qiziqdik.

Sevimli yozuvchimiz nomidagi ijod maktabi tashkil etilayotganini eshitib quvondim. Ota-onam bilan maslahatlashib, o'qishni shu dargohda davom ettirishga qaror qildim, — deydi ijod maktabi o'quvchisi Muazzamxon Abduqodirova. — Dastlab ijodiy imtihonlarda qatnashdim. O'zbekning "Fanorchi ota" hikoyasi, o'zbek xalq ertaklari asosidagi suhbat va "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" mavzusidagi ijodiy ishim hakamlar tomonidan yuqori baholandi. So'ng test sinovlaridan ham muvaffaqiyatli o'tib, o'qishga qabul qilindim. Bundan baxtiyorman. Bir olam orzularim bor. Kelajakda adabiyotshunos bo'lmoqchiman. Badiiy tarjima bilan ham shug'ullanish niyatim bor. Buning uchun mutolaani susaytirmay, doimiy izlanishda bo'lishim zarurligini, avvalo, ona tilimiz qatori chet tillarni ham puxta o'rganishim kerakligini bilaman. Bu maskan shu maqsadlarimga yetishishda qanot bo'lishiga ishonaman.

Tadbirda so'ngida ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga doir savollariga mas'ul javob berdi va o'quvchilarga Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan kitoblarni sovg'a qildi.

Sardor MUSTAFOYEV,
"Ma'rifat" muxbiri

B.RIZOQULOV olgan suratlar.



Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-929. Tiraj 11626. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichlimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 03.20 Topshirildi — 03.25

1 3 4 5 6

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.